O’ZBEKICTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O’RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMASEVTIKA INSTITUTI

«IJTIMOIY FANLAR» KAFEDRASI

# PSIXOLOGIYA

Fanidan

**BARCHA YO`NALISHLAR UCHUN**

**USLUBIY QO`LLANMA**



**Тошкент -2013**

Mazkur uslubiy qo`llanma bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalariga «Psixologiya» fanidan talabalar amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda, mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda foydalanadilar. Shuningdek, o'z bilimini tekshirib ko'rishi uchun savollar kiritilgan bo'lib talabani o'z ustida ishlashga ko'mak beradi.

Ko'rsatmada ushbu fandan baholash mezoni ham keltirilgan bo'lib, talaba to'plashi kerak bo'lgan ballarni yig'ishda yo'riqnoma sifatida foydalanadi.


*Tuzuvchi:* *Katta o`qituvchi S.Yuldosheva*

*Taqrizchilar:* *dots M.O.Norbosheva*

*Katta o`qituvchi L.Sultonova*



*Ijtimoiy fanlar kafedrasining 2013 -yil _______№__-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va foydalanish uchun tavsiya etilgan.*

# K I R I SH

XXI asr buyuk o`zgarishlar davri. Bu o`zgarishlarning avvalo inson tafakkuriga, uning fikrlash tarzida ro`y berishi muqarrar. Tabiiyki, bu holat shaxs ma'naviyati va uning orqali jamiyat ma'naviy qiyofasiga o`z ta'sirini ko`rsatmay qolmaydi. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish ishining hayotiy zarurati va dolzarbligi haqida fikr yuritar ekanlar, milliy g`oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo`lishi zarur.

Ushbu o'quv uslubiy qo`llanma yoshlarga aynan psixologik bilimlar asoslarini bersa-da, umid qilamizki, ularni o'z atrofida ro'y berayotgan islohotlarga holis baho berish, o'zi va o'zgalar ruhiyati sir-asrorlarini befarq bo'lmaslik, o'z layoqatlarini o'stirishning elementar vositalaridan bohabar bo'lishga yordam beradi. Chunki shaxsgina o'z qobiliyati, iqtidori, layoqati, tafakkuri, diqqati, xarakteri xususiyatlarini bilib, uni to'g'ri yo'naltira olsa, bu nafaqat shaxsning o'ziga, balki jamiyat uchun ham katta naf keltiradi. Shunday ekan, hozirgi kunda psixologiya fani sir-asrorlarini har bir o'quvchi uchun zarur bo'lgan jihatlarini, chunonchi: psixologiyaning boshqa fanlar bilan integrasiyalashuvi, hamkorligi, bog'liqligini; psixologiyaning zamonaviy yo'nalishlari va tarmoqlarini; shaxsni psixologik diagnostika qilish usullarini; shaxs va jamiyat munosabatlarini uyg'unligini; shaxs faoliyati va hatti-harakati motivlarini; faoliyati turlarini; shaxsda kuzatiladigan psixik jarayonlar: sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, hayolni bilish va ularni boshqarish qonuniyatlarini qo'llay olishni; shaxsdagi qobiliyat, xarakter va temperament kabi individual psixologik xususiyatlarning shaxs faoliyati va hayotidagi tutgan o'rnini; shaxsning turli yosh davrlarga bog'liq xususiyatlarini; shaxsning muloqot jarayonidagi shakl, tur, vositalarini; shaxsning guruhga va o'z navbatida guruhning shaxsga ta'sirini; o'quv va tarbiya jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan samarali usullarni bilish, o'rganish muhimdir

Psixologiya dasturida rejalashtirilgan mavzular yoshlarni o`z imkoniyatlarini to`liq anglab etishi va shu imkoniyatlarni amalga oshirish uchun zarur ko`nikma va malakalar shakllanishining psixologik jihatlarini taxlil qiladi.

Psixologik bilimlarni egallash bo`lajak kadrlarda o`z-o`zini to`g`ri baholash, o`z imkoniyatlaridan omilkorona foydalanish, o`z-o`ziga buyruq berish, o`z-o`zini nazorat qilish kabi muhim sifatlar shakllanishiga yordam beradi.

Mazkur uslubiy qo`llanma bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalariga «Psixologiya» fanidan talabalar amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishda, mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda foydalanadilar. Shuningdek, o'z bilimini tekshirib ko'rishi uchun savollar kiritilgan bo'lib talabani o'z ustida ishlashga ko'mak beradi.

**1-mavzu: Psixologiya fanining predmeti ,vazifalari.**

1.Psixologiya fanining predmeti.
2.Psixologiyaning vazifalari va tarmoqlari.
3.Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi
4.Psixologiyaning fanlar sistemasida tutgan o'rni.

**T a y a n ch s o' z v a i b o r a l a r :**

Psixologiya, rux, aks ettirish, psixika, Aristotel, refleks, emperizm, sensualizm, faktlar, jarayonlar, individual xususiyatlar, vazifalar, psixik holatlar.

**Mashg'ulotni o'tkazish joyi :** auditoriya
**Mashg'ulotning jihozlanishi :** tarqatma materiallar, texnik vositalar
**Mashg'ulotning davomiyligi :** 2 soat
**Mashg'ulotning maqsadi :** Talabalarda psixologiya fanining yangi davrga xos yondashuvlari, boshqa fanlar bilan aloqasi, psixologik tarmoqlar klassifikatsiyasi haqida nazariy bilimlarni berish, psixologiyaning asosiy metodlaridan foqdalanish va qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish

**Motivasiya:** Psixologiyaning alohida tarmoqlarini differensiasiya qilish eng avvalo ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. Hozirgi davrga kelib psixologiyani inson shaxsi haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsining esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin.

**Fanlararo va fan ichida bog'liqlik:** Globalizatsiya sharoitida psixologiya o'rganadigan muammolarning dolzarbligi, avvalo, har bir shaxsning murakkab insoniy munosabatlar, axborot kommunikasiyalari sharoitida yashayotganligi, inson xulqini boshqarish ayrim mamlakatlar uchun ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi omili sifatida e'tirof etilishi bilan izohlanadi.
Bu so'zlarni bugungi Globalizatsiya sharoitida insonning jamiyatda tutgan o'rni va zarur maqomni egallashiga, informasion xurujlar va turli xil ma'lumotlarning turli yo'llar bilan mamlakatimizga, umuman, boshqa mamlakatlarga ham kirib kelib, u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e'tiqod shakllariga va tarbiya uslublariga salbiy yoki ijobiy ta'siri jarayonlari ma'nosida qo'llash shaxs ruhiyatiga aloqador siru-sinoatlarni bilishni, shaxsga o'z-o'zini himoya hilish, o'z ustida ishlash imkoniyatlarini bilishni dolzarb qilib qo'yadi.

**Mashgulot mazmuni**

**Назарий қисм**

*Yangi davr va psixologiya.* Psixologiya sohasida XX asrda erishilgan yutuqlar. Fanda yuzaga kelgan yangi yo'nalishlar va yangicha yondashuvlar. Sinergetik yondashuv. Akmeologik yondashuv.

*Psixologiya fanining dolzarbligi.* Globalizasiya sharoitida psixologiya o'rganadigan muammolarning dolzarbligi. Insonni o'rganishning ahamiyati.

*Psixologiya fanining predmeti.* Psixologiya fanining predmeti va uning fanda asoslanishi. Psixikaning zamonaviy va klassik ta'riflari. Psixik jarayonlarning namoyon bo'lish shakllari va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

*Psixologiyaning tarmoqlari.* Psixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi. AQSh va RFdagi mavjud ba'zi psixologik tarmoqlar klassifikasiyasi. Bizning sharoitimizda rivoj topayotgan va amaliy tus kasb etayotgan psixologiya tarmoqlarining qisqacha tavsiflari.

*Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi sharoitida shaxs omiliga nisbatan e'tibor.*

*Psixologik bilimlarning paydo bo'lish davrlari (e.av. 4-5-asrlar va 16-17-asrdagi taraqqiyoti).* Suqrot (Sokrat), Platon, Arastu (Arestotel)larning falsafiy qarashlari. Psixologiya tarixidan. Antik dunyoda psixologiyaning paydo bo'lishi va dastlabki taraqqiyoti. XVI-XVII asrlar: empirik psixologiyani paydo bo'lishi va uning dastlabki taraqqiyoti.

*Psixologiyaning ilmiy fan sifatida shakllanishi(19-20-asrlar).* Vilgelm Vundt va uning Leybnis universitetidagi birinchi ekmperimental psixologik laboratoriyasi. Strukturalizm.

Funksionalizm. E.Titchener va V.Jeymslarning tadqiqotlari. Bixeviorizm. E.Torndayk va D.Uotsonlar asos solgan yo'nalish. Psixoanaliz. Zigmund Freydning psixologiya fani rivojlanishida tutgan o'rni. «Id (U) – Ego (Men) – Superego (Mendan oliy)» tushunchalari. «Libido» hamda «agressiv» energiyalar. K.Yung hamda individual psixologiyani targ'ib etgan A.Adlerning ilmiy tadqiqotlari mohiyati.

*Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni.* Psixologiya va falsafa. Psixologiya va tarix. Psixologiya va sosiologiya. Psixologiya va pedagogika. Psixologiya va tabiiy fanlar. Psixologiya va kibernetika. Psixologiya va texnika fanlari. Psixologiya va iqtisodiyot.

*Psixologiyaning tatbiqiy va amaliy sohalari.* «Tashxis markazlari» hamda «Ta'lim-tarbiya jarayonini sosiologik, psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash xizmat»larida faoliyati mazmuni.

*Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari.* Sanoat va ishlab chiqarish sohasi. Siyosat sohasidagi psixologiya. Oila va nikoh borasidagi tatbiqiy ishlar. Maorif sohasidagi amaliy ishlar. Huquqbuzarlikning oldini olish.

*Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida amaliy psixologiyaning tutgan o'rni.*

**Fanning tarkibiy-mantiqiy tuzilishi**



Mavzular

1) Psixologiya fani predmeti va asosiy mavzulari.

2) Psixologiyaning asosiy metodlari
3) Shaxs va jamiyat muammosi
4) Shaxs va faoliyat. Faoliyat motivlari va turlari.
5) Shaxsning bilish jarayonlari
6) Tafakkur va unng xususiyatlari
7) Shaxs individual xususiyatlari

Shaxsning yosh davrlari

Insoniy muomala psixologiyasi. Samarali ta'sir taktikasi

Gurux va shaxs psixologiyasi. Guruhdagi ta'sir jarayonlari

Pedagogik va psixologik o'qitish texnologiyalari

**Mavzuni jonlantirish uchun savollar**

1. Psixologiya fanining predmeti nima?
2. Psixologiyaga asos solingan yil?
3. Psixologiya so'zining ma'nosi qanday?
4. Psixologiya fani o'rganadigan jarayonlar?
5. Psixikaning namoyon bo'lish shakllari qanday ko'rinishga ega?
6. Psixologiya qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liq?
7. Psixik jarayonlar deb nimaga aytiladi?
8. Psixologik holatlar qanday ko'rinishga ega?
9. Shaxsning individual xususiyatlari nima?
10. Psixologiyaning qanday tarmoqlari mavjud?

Psixikaning namoyon bo'lish shakllari:

1. Psixik jarayonlar;
2. Psixologik holatlar;
3. Shaxsning individual-psixologik

PSIXIK JARAYONLAR:

Sezgilar; Idrok; Diqqat;
Xotira; Tafakkur; Xotira, Nutq; Hayol.

PSIXOLOGIK HOLATLAR:

Emosiyalar; E'tiqodlilik;
Bardamlik; Tetiklik; Apatiya;
Qiziquvchanlik; Xayratlanish; Ishonchlilik;
Ijodiy ruhlanish.

Shaxsning individual psixologik xususiyatlari:

Yo'nalishlar; Temperament; Xarakter;
Qobiliyatlar; Iqtidor; Aqliy salohiyat;
Xulq motivasiyasi; Ish uslubi; Mas'uliyat.

**iboralar asosida vizual ma'lumotlar**

*Psixika* – yuksak darajada tashkil topgan materiya, miyaning funksiyasi. Uning mohiyati tuyg'ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko'rinishida aks ettirishdan iborat.

*Psixik jarayonlar* – u yoki bu psixik maxsult va natijalarni (psixik obrazlar, xolatlar, tushunchalar, xissiyot va x.k.) xosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayon.

*Psixologiya* – odamning obyektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-hissiyot va boshqa psixik xolatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.

*Psixik holatlar* – psixik hayot shakllari, diqqat, hissiyot, iroda jarayonlariga aytiladi. P.H. (xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qat'iylik, tirishoqlik v.b.) shaxslarda ma'lum darajada barqaror bo'lib, ularning muayyan xususiyatiga ham aylanib qoladi.

**3-Slayd: Psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi**

**PSIXOLOGIYA VA IQTISODIYOT**

***Iqtisodiyot*** bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma - bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. Yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo'lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o'z navbatida iqtisodiy islohotlarning obyekti hamda subyekti bo'lmish inson omilidagi barcha psixologik o'zgarishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak.

**Psixologiya va sotsiologiya**

***Sotsiologiya*** fanining erishgan yutuqlaridan psixologiya fani ham foydalanadi, chunki bu fanlarning ko'lami kengayadi. Ayniqsa, ijtimoiy psixologiyaning sosiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlash ishiga xizmat qiladilar.

**Psixologiya va falsafa**

***Falsafa*** bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanib borish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi.

***Kibernetika*** fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur

bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rni va rolini oshiradi, maxsus kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

PSIXOLOGIYA VA TEXNIKA FANLARI

***Texnika fanlari*** bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Murakkab zamonaviy texnika sir - asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta'minlash qanchalik dolzarb bo'lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fukaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va «odam - mashina»



| | |
|---|---|
| IJTIMOIY PSIXOLOGIYA | Odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi |
| TIBBIYOT PSIXOLOGIYASI | Shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi |
| INJENERLIK PSIXOLOGIYASI | Avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatori faoliyatini, odam-texnika o'rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi |
| YURIDIK PSIXOLOGIYA | Huquq sistemasining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi |
| UMUMIY PSIXOLOGIYA | Psixologiyaning barcha masalalarining o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus sohasi |
| HARBIY PSIXOLOGIYA | Kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, boshliqlar bilan ijro etuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi |
| SAVDO PSIXOLOGIYASI | Jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini ko'radi. |

**MEHNAT PSIXOLOGIYASI** — Kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadi

**YOSH DAVRLARI PSIXOLOGIYASI** — Turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini o'rganadi

**PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA** — Kishiga ta'lim va tarbiya berishni psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi

**Bilimni tekshirish uchun test savollari:**

1. Psixika va uning namoyon bo'lish shakllari:
A) psixik jarayonlar, psixologik xolatlar, shaxsning temperamenti;
B) psixik jarayonlar, psixologik xolatlar, shaxs xarakteri;
V) psixik jarayonlar, psixologik xolatlar, qobiliyat;
G) psixik jarayonlar, psixologik xolatlar, shaxs xususiyatlari.

2. Psixik jarayonlarga nimalar kiradi?
A) sezgilar, idrok, emosiyalar, xarakter, iqtidor;
B) sezgilar, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq, diqqat;
V) sezgilar, idrok, tafakkur, emosiyalar, temperament, diqqat, nutq;
G) sezgilar, idrok, xotira, tafakkur, diqqat, nutq, qobiliyat.

3. Shaxs psixologik xolati nimalarda ifodalanadi?
A) emosiyalar, e'tiqod, iroda, qiziquvchanlik, tetiklik, apatiya, bardamlik, ishonchlilik;
B) emosiyalar, e'tiqod, iroda, mas'uliyat, tetiklik, apatiya, bardamlik, ishonchlilik;
V) emosiyalar, e'tiqod, iroda, qiziquvchanlik, iqtidor, apatiya, bardamlik ishonchlilik;
G) emosiyalar, e'tiqod, iroda, qiziquvchanlik, tetiklik, aqliy saloшiyat, bardamlik, ishonchlilik.

4. Shaxs individual xususiyatlari tashkil etuvchilariga nimalar kiradi?
A) yo'nalishlar, temperament, qobiliyat, motivlar, mas'uliyat;
B) yo'nalishlar, temperament, xarakter, qobiliyat, motivlar, mas'uliyat, ish uslubi, iqtidor;
V) yo'nalishlar, temperament, qobiliyat, motivlar, mas'uliyat; ish uslubi, iqtidor, aqliy saloшiyat;
G) yo'nalishlar, temperament, xarakter, motivlar, mas'uliyat; ish uslubi, iqtidor, aqliy salohiyat.

Topshiriq. Psixologiyaning asosiy tarmoqlarini yozing




Topshiriq. Psixikaning namoyon bo'lish shakllarini yozing




Topshiriq.Psixologiya va fanlarning o'zaro bog'liqligini yozing




Klaster texnikasi asosida ushbu tushunchalarni yozing: *psixika, uning shakllari, psixologiya, psixologiya tarmoqlari, psixologiya va fanlar*.

Klaster texnikasining qoidasi:

- Klaster – parchalanish, maydalanish ma'nosini anglatadi.
- Mavzudan chiqqan va chiqmagan xolda so'z o'zagini ma'no mazmunini davom ettiramiz. So'zlar tarmoqlanadi.
- Klaster uslubi darsning bir qismida (boshida, o'rtasida, oxirida) qo'llaniladi.
- Guruxlarga bir xil savol berilsa, tarmoq bajarilgandan so'ng bir xil terminlar o'chiriladi, kimda o'chirilmagan terminlar ko'p qolsa, o'sha gruppa g'olib xisoblanadi.
- O'qituvchi o'z variantiga ega bo'lishi kerak.
- So'zlarning klassifikasiyasi ro'y bermasligi kerak.

**Mustaqil o'rganish uchun mavzular**

- Psixologiyada yoshlar tarbiyasi muammolari.
- Psixologiyaning yoshlar ma'naviyatining shakllanishidagi roli.
- Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda psixologiya fanining o'rni va ahamiyati.

**Joriy nazoratni baholash mezoni:**

| № | Foizda % | Ballda | Baho | Talabaning bilim darajasi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 55 | 2,75 | 2 | Qoniqarsiz |
| 2 | 56-70 | 2,8-3,5 | 3 | Qoniqarli |
| 3 | 71-85 | 3,5-4,2 | 4 | Yaxshi |
| 4 | 86-100 | 4,3-5 | 5 | A'lo |

## AMALIY MASHG'ULOTDA O'QITISH TEXNOLOGIYASI

| | |
|---|---|
| **1-MAVZU** | **PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI , MAQSADI VA VAZIFALAR** |
| | **I** |

( amaliy mashg'ulot – 2 soat)

| | |
|---|---|
| *Mashg'ulot shakli* | amaliy mashg'ulot |
| *mashg'ulot rejasi* | 1. Psixologiya fanining predmeti<br>2. Psixologiya fanining dolzarbligi<br>3. Psixologiyaning tarmoqlari<br>4. Psixologiya fanining fanlar tizimida tutgan o`rni. |
| *O'quv mashg'ulotining maqsadi* | O'quv kursi haqida umumiy tasavvurni berish, psixologiya fanining predmeti, vazifalari, yangicha tafakkur va milliy mafkura shakllanishi sharoitida psixologik bilimlarning tutgan o'rnini tushuntirish |
| *Tayanch tushuncha va iboralar* | psixologiya, psixik jarayonlar, psixologik holatlar, shaxs xususiyatlari, maxsus tarmoqlar |
| *Pedagogik vazifalar:* | *O'quv faoliyati natijalari:* |
| kursning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish; | Kursning maqsadi va vazifalarini aytib bera oladilar; |
| kursning tuzilmasi, o'quv faoliyatini baholash mezonlari hamda tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati haqida ma'lumot beriladi; | kursning tuzilmasi, o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va baholash shakllarini aytib bera oladilar; |
| shaxsni o'rganishda kuzatilgan turli nazariyalar mohiyati yoritiladi | Psixologiyaning nazariy yo'nalishlari va amaliyoti yutuqlarini yoritib bera oladilar; |
| psixika va uning namoyon bo'lish shakllariga oid tushunchalari yoritib beriladi; | Psixika va uning shakllariga ta'rif bera oladilar; |

| | |
|---|---|
| psixikaning turlari sanab o'tiladi va tasnifi beriladi; | psixikaning turlari va tasnifini bera oladilar; |
| psixologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi tushuntiriladi; | psixologiyaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligini asoslab bera oladilar; |
| psixologiyaning tarmoqlari bilan tanishtiriladi. | psixologiyaning tarmoqlarini aytib bera oladilar. |
| O'qitish usullari | blis-so'rov, aqliy xujum, klaster |
| O'qitish vositalari | Ma'ruza matni, komp'yuter texnologiyasi, slaydlar |
| O'qitish shakllari | Frontal, kollektiv ish |
| O'qitish sharoiti | Texnik vositalar bilan ta'minlangan, o'qitish usullarini qo'llash mumkin bo'lgan o'quv xona |
| Monitoring va baholash | Kuzatish, og'zaki nazorat, yozma nazorat, o'quv topshiriq |

**amaliy mashg'ulot texnologik kartasi**

| Ish jarayoni bosqichlari vaqti | Faoliyatning mazmuni | |
|---|---|---|
| | o'qituvchi | Talaba |
| 1 bosqich. Kirish (15 daqiqa) | 1.1. O'quv fanining nomini ayta-di, predmetning dastlabki umu-miy tasavvurini beradi. Uslu-biy va tashkiliy tomonlari, talabalar bilimlarini baxolash mezonlarini va fan strukturasini tanishtiradi. (1-ilova)<br>1.2. Mazkur fanning o'rgani-ladigan mavzulari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar, ularning uzviyligi xaqida qisqacha ma'lumot beradi. Asosiy adabiyotlarning ro'yxati bilan tanishtiriladi. (2-ilova)<br>O'quv dasturi talabalarga tanishtiriladi.<br>1.3. amaliy mashg'ulot darsining maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytiladi. Talabalarni aqliy xujumga tortish uchun jonlantiruvchi savollar beriladi. (3-ilova). | Tinglaydi va yozadi<br>amaliy mashg'ulot nomini yozib oladilar<br>Savollarga javob beradi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (55 daqiqa) | 2.1.amaliy mashg'ulot rejasining barcha savollari bo'yicha vizual materialni namoyish qilinadi. (4- ilova)<br>Mavzuning asosiy joylarini yozib olishlari aytiladi.<br>Faollashtiruvchi savol-javob o'tkaziladi.<br>Birinchi reja savoli bo'yicha:<br>1. «Psixologiya» deganda nimani tushunasiz?<br>Ikkinchi reja savoli bo'yicha:<br>2. «Psixologiya» fanini o'rganish bo'yicha | Tinglaydi, o'rganadi, Yozadi, aniqlaydi, savollar beradi.<br>Asosiy joylarini yozadi |

| | | |
|---|---|---|
| | fikringiz?<br>Uchinchi reja savoli bo'yicha:<br>3. Psixikaning namoyon bo'lish shakllari nimalardan iborat?<br>To'rtinchi reja savoli bo'yicha:<br>4. Psixologiyaning asosiy kategoriyalari deganda nimani tushunasiz?<br>Javoblar to'g'rilanadi va xulosalanadi.<br>2.2. tayanch iboralari kerakli tushuncha va iboralar qo'shiladi. Javoblarni to'g'rilaydi va xulosalaydi. (5-ilova)<br>2.3. Talabalarga erkin fikr aytishga ruxsat beriladi va ularni rag'batlantiriladi. | Savollarga javob beradi<br><br>Xar bir tayanch tushuncha va iboralarni muxokama kiladi. Yozadi.<br><br>Javob beradi |
| 3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.<br>3.2. Talabalarning bilim va ko'nikmalari baholanadi.<br>3.3. Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan masalani e'lon qilinadi, va mustaqil tayyorgarlik ko'rishlariso'raladi.<br>3.4. Talabalarga uyga vazifa qilib: (1)."Psixologiya va yangi davr" mavzusida esse yozib kelish;<br>(2). Mustaqil ishlash uchun mavzular<br>(3). Kelgusi mavzu e'lon qilinadi va unga tayyorlanib kelishni aytiladi.<br>(4). O'zini-o'zi nazorat qilish uchun savollar . (6- ilova).<br>(5). Tavsiya etilgan adabiyotlarni o'rganish. | Tinglaydi<br><br>Mustaqil ishlash uchun topshiriqni yozib oladi<br><br>Dokladlar mavzusiga tayyorlanadi.<br><br>O'UMga qarang |

**Nazorat savollari**

1. Psixologiya fanining predmeti nima.
2. Psixologiyaga asos solingan yil.
3. Psixologiya so'zining ma'nosi qanday.
4. Psixologiya fani o'rganadigan jarayonlar.
5. Psixikaning namoyon bo'lish shakllari qanday ko'rinishga ega.
6. Psixologiya qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liq.
7. Psixik jarayonlar deb nimaga aytiladi.
8. Psixologik holatlar qanday ko'rinishga ega.
9. Shaxsning individual xususiyatlari nima.
10. Psixologiyaning qanday tarmoqlari mavjud.

**Tavsiya etilgan adabiyotlar**

**Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: «O'zbekiston», 2010. – 80 b.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009. – 56 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «Mamlakati-mizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy

vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqi-miz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'-yicha O'quv-uslubiy majmua. / Tuzuvchilar: B.Yu. Xodiyev, A.Sh. Bekmurodov, U.V. G'ofurov va boshqalar. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 331
4. «Barkamol avlod yili» davlat dasturi to'g'risida: 2010 yil 27 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1271-sonli qarori // Xalq so'zi gazetasi. – 27.01.2010.
5. Maklakov A.G. Общая psixologiya: Uchebnik. – SPb.: Piter, 2010. – 10-25 s.
6. Nemov R.S. Общая psixologiya. Uchebnik. – SPB.: Piter, 2009. – 13-31 s.
7. Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 9-12 b.
8. Karimova V.M., Hayitov O.E., Akramova F.A., Lutfullayeva N.X. Psixologiya. Darslik. – T.: TDIU «Talaba», 2007. – 9-29 b.
9. Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, «O'zAJBNT» markazi, 2002. – 5-15 b.
10. G`oziyev.E.G`.Umumiy psixologiya . T.2010 -5-16 b.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, ToshDU, 2002 (o`quv qo`llanma).
2. Davletshin M.G., To`ychieva M. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
3. Davletshin M.G., Jalilova S.X. Psixologik muammolar. Toshkent, 2002 (o`quv qo`llanma).
4. Karimova V.M. Psixologiya. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2002.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent, 1999.
6. Karimova V.M. Psixologiya. Toshkent, 2012.

***Internet saytlari***

1. www.ziyonet. uz
2. www.psihol.ru
3. www.psiholog.uz
4.

## 2- mavzu: Psixologiyada shaxc va jamiyat muammosi

1. Shaxs ta`rifi.
2. Individ, shaxs, individuallik va ularning o'zaro bog'lanishlari haqida tushuncha.
3. Shaxs shakllanishiga ta`sir etuvchi faktorlar.
4. Shaxs faolligining manbai sifatida ehtiyoj va uning turlari haqida tushuncha.

**T a y a n ch s o' z v a i b o r a l a r :**

Shaxs, individ, individuallik, faollik, faoliyat, motiv, qiziqishlar, shaxsning shakllanishida ta'sir qiluvchi omillar, shaxs sifatlari.

**Mashg'ulotni o'tkazish joyi :** auditoriya
**Mashg'ulotning jihozlanishi :** tarqatma materiallar, texnik vositalar
**Mashg'ulotning davomiyligi :** 2 soat
**Mashg'ulotning maqsadi :**Talabalarda psixologiya fanining yangi davrga xos yondashuvlari, boshqa fanlar bilan aloqasi, psixologik tarmoqlar klassifikatsiyasi haqida nazariy bilimlarni berish, psixologiyaning asosiy metodlaridan foqdalanish va qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish
**Motivasiya:** Psixologiyaning alohida tarmoqlarini differensiasiya qilish eng avvalo ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. Hozirgi davrga kelib psixologiyani inson shaxsi haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. **Fanlararo va fan ichida bog'liqlik :** Individuallik temperament va

xarakter xususiyatlarda, odatlarda, ustun darajadagi kizikishlarda, bilish jarayonlariga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur) da kobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga xos uslubda va xokazolarda namoyon buladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini uzida mujassamlashtirilgan odam yuk-inson shaxsi uz individualligi jixatidan betakrordir.

**Mashgulot mazmuni:**

**Назарий қисм** Individ haqida tushuncha, shaxs va uning strukturasi, shaxsdagi individuallik xususiyatlar, ular o'rtasidagi bog'lanishlar, shaxs faolligi, shaxs faolligining manbai sifatida ehtiyoj va uning turlari, mehnat ehtiyoji, xulq-atvor motivlari, qiziqishlar, odam tshaxsini shakllantirish qonuniyatlarining ob'yektiv xarakteri, odamning rivojlanishida va shaxsning kamolotida biologik va ijtimoiy komponentlarning roli, odamning psixik rivojlanishi va shaxs kamolotidagi harakatlantiruvchi kuchlar, yosh avlodning har tomonlama rivojlanishining asosiy omillari va shart-sharoitlari, har tomonlama madaniyatli kishilarga xos bo'lgan shaxsiy sifatlar.

***Shaxs individlararo munosabatlar sub'yektidir.*** "Individ" va "shaxs" tushunchalarining bir-biriga mos kelmasligi va aynan uxshash emasligi faktidan shu narsa ayonki, shaxs tushunchasi birgalikdagi faoliyatning xar bir ishtirokchisi uchun ushbu faoliyatning mazmuni, kadriyatlari va moxiyati orkali namoyon buladigan shaxslararo barkaror boglanishlar sistemasidagina anglanilishi mumkin. Bunday shaxslararo alokalar realdir, lekin ular tabiatan "gayrixissiy"dir. Ular jamoaga kiradigan odamlarning konkret individual xususiyatlari va xatti-xarakatlaridan namoyon buladi, lekin ularning sababchisi bula olmaydi. Ular xar bir individlararo alokalar sistemasida va undan kengrok mikyosda-ijtimoiy munosabatlar sistemasida egallaydigan aloxida mavkeini belgilab beradigan ana shu shaxsiy xislatlarini namoyon kiladigan gurux shaklidagi sha faoliyatning aloxida fazilatini tashkil etadi.

***Shaxs va individuallik.*** Har bir kishining shaxsi uning individualligi vujudga keltiradigan xislatlar va fazilatlarning fakat unga xos birikuvidan tarkibtopgandir. Individuallik-kishining uziga xosligini, uning boshka odamlardan farkini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasidir. Individuallik temperament va xarakter xususiyatlarda, odatlarda, ustun darajadagi kizikishlarda, bilish jarayonlariga oid fazilatlar (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur) da kobiliyatlarda, faoliyatning shaxsga xos uslubda va xokazolarda namoyon buladi. Zikr etilgan psixologik xususiyatlarning bir xildagi birikmasini uzida mujassamlashtirilgan odam yuk-inson shaxsi uz individualligi jixatidan betakrordir.







4-rasm. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar

# Ta’sirga beriluvchanlik: konformizm – nonkonformizm

- **Konformizm** – bu real yoki tasavvurlardagi guruhning shaxs e’tiqodi va xulq-atvoriga ta’sirini tushuntiruvchi hodisadir. U ikki xil namoyon bo’lishi mumkin:
  - yon berish – qalban qo’shilmasa-da, tashqi harakatda ko’pchilik firiga ergashish;
  - ma’qullash – e’tiqod va qarashlarning ijtimoiy tazyiqqa to’la mos kelishi.




1-rasm. Konformizm hodisasi turlari

## Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanilishi

- Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqyeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz – "Men" – obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy mavqyeini belgilaydi va uning barkamolligi mezonlaridan hisoblanadi.

**Bilimlarni tekshirish uchun test savollari:**

1. Shaxsning shaxssiz asosi nima?
A). shaxs;
V). xarakter;
S). individ
D). individuallik
2. Shaxs-individ o`rtasidagi asosiy farq?
A). ijtimoiyligi
V). fiziologik xosligi
S). biologik xosligi
D). irsiyati

3. Shaxs taraqqiyotida ijtimoiy omillarning rolini bo`rttirib ko`rsatuvchi nazariya
A). biogenetik
V). sotsiogenetik
S). psixogenetik
D). psixoanaliktik

4. Shaxs taraqqiyotida biologik omillarning rolini bo`rttirib ko`rsatuvchi nazariya
A). biogenetik
V). sotsiogenetik
S). psixogenetik
D). psixoanaliktik

5. Shaxs shakllanishida ijtimoiy muhit rolini inkor etgan kontseptsiya?
A). biogenetik kontseptsiya
V). psixogenetik kontseptsiya
S). bixeviorizm
D). assotsionizm
6. Individ yoki shaxsning individual rivojlantirishi, taraqqiyoti?
A. Ontogenez V. Fenotip, S.Genotip, D. Filogenez

**Joriy nazoratni baholash mezoni:**

| № | Foizda % | Ballda | Baho | Talabaning bilim darajasi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 55 | 2,75 | 2 | Qoniqarsiz |
| 2 | 56-70 | 2,8-3,5 | 3 | Qoniqarli |
| 3 | 71-85 | 3,5-4,2 | 4 | Yaxshi |
| 4 | 86-100 | 4,3-5 | 5 | A'lo |

***Amaliy mashg`ulotda ta'lim texnologiyasi***

| | |
|---|---|
| *O`quv soati: 2 soat*<br>*Talabalar soni:*<br><br>*O`quv mashg`ulotining shakli* | Bilimlarni..mustahkamlash, chuqurlashtirish. |
| *Mavzu rejasi* | 1. Individ, shaxs ,individuallik haqida tushuncha<br>2. Faoliyat va shaxs<br>3.SHaxs nazariyalari<br>4. Muomalaning shaxslararo munosabatdagi roli |
| *Mashg`ulotning maqsadi:* Psixologiyada shaxs va jamiyat muammosi.Shaxs va faoliyat *haqidagi bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish.* | |
| *Pedagogik vazifalar:*<br>• Individ shaxs,individuallik haq tasavvurlarini chuqurlashti-rish;<br>• Faoliyat va shaxs haqida keng tush berish.<br><br>• . SHaxs nazariyalari haqida tushuncha berish.<br><br>• Muomalaning shaxs munosabatdagi,roli haq tasavvurlarini chuqurlashti-rish; | *O`quv faoliyatining natijalari:*<br>1.Individ,shaxs,individuallik tushunchalarini mustaqil tushuntiradi<br><br>2. Faoliyat va shaxs haqida keng tushuntiradi;<br><br>3. SHaxs nazariyalarini mustaqil yoritadi va tahlil qiladi;<br>4.Muomalaning….shaxslararo munosabatdagi,roli haqidagiu tasavvurlarini tahlil qiladi: |
| *Ta'lim metodlari* | Amaliy, suhbat, tezkor-so`rov, test |

| | |
|---|---|
| *Ta'lim vositalari* | Ma'ruza matni, format qog`ozlari, markerlar, skotch, kompyuter texnologiyalari, o`quv materiallari |
| *Ta'lim shakllari* | Juftliklarda va guruhlarda ishlash. |
| *O`qitish shart-sharoiti* | Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo`ljallangan auditoriya |
| *Monitoring va baholash* | Nazorat savollari, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash. |

**Amaliy mashg`ulotning texnologik xaritasi**

| *Faoliyat bosqichlari* | *Faoliyatning mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *O`qituvchining* | *talabaning* |
| I.Kirish bosqichi (15daqiqa) | 1.1.Mavzuning nomi, maqsadi va rejalashtirilgan o`quv natijalarini eslatadi.<br>1.2. Guruqlar ishini baqolash mezonlarini e'lon qiladi (1-ilova).<br>1.4. Talabalarga mavzu bo`yicha qo`shimcha materiallar tarqatadi. | Tinglaydilar. |
| II.Asosiy bosqich (60 daqiqa) | 2.1.Talabalarni faollashtirish maqsadida tezkor-so`rov texnikasini qo`llab mavzu bo`yicha savollar beradi:<br>- SHaxs nazariyalarini sanang.<br>-SHaxs rivojlanishini bosqichlarga ajratib o`rgangan psixologlarni ayting.<br>-SHaxs shakllanishiga ta`sir etuvchi omillar.<br>-Biogenetik nazariya asoschilari.<br>-psixodinamika nazariyasi bakili kim?<br>Javoblarni diqqat bilan eshitadi, to`ldiradi, kamchiliklarini to`qrilaydi.<br>2.2.Talabalarni ixtiyoriy ravishda 3 ta guruhga bo`ladi. qar bir guruqga topshiriq beradi (2-ilova).<br>2.3.Guruqlarda faoliyatni tashkil qiladi. Topshiriqni bajarishda faqat qo`shimcha materialdan foydalanish kerakligini aytadi<br>Guruqlarni kuzatadi, yo`naltiradi, maslaqatlar beradi.<br>2.4. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi.<br>Javoblarni umumlashtiradi, xatolarini tuzatadi, xatosiz bajarilgan ishlarni raqbatlantiradi. | Berilgan savollarga javob beradilar.<br>Ixtiyoriy 3 ta gu-ruqga bo`linadilar.<br>Berilgan qo`shimcha materiallar aso-sida ishlaydilar. Savol bo`yicha fikr almashadilar, mu-loqaza qiladilar va tayyor ma'lu-motni format qoqoziga sxemalar, jadvallar asosida tushiradi.<br>Tayyor materialni doskaga iladilar.<br>Guruqdan bir ish-tirokchi bajargan vazifalarini taqdim etadi. |
| III. O`yinni olib borishga tayyorgarlik (10 minut) | 3.1. Mavzuning rejadagi uchta savolini umumlashtiradi, xulosalar qiladi.<br>3.2. Guruqlar ishini baqolaydi va baholarni e'lon qiladi.<br>3.3.Mustaqil vazifa uchun topshiriq beradi: (1) seminar mashqulotining keyingi uchta savoliga qo`shimcha materiallar asosida tayyorlanib kelish; (2) har bir talabaga mavzuning o`tilgan reja | Eshitadilar.<br>Vazifani yozib |

| | | |
|---|---|---|
| | savollari bo`yicha to`rttadan savol tayyorlab kelish . | oladilar. |

1-ilova

**Ekspert varag`i №1**

1. SHaxs shakllanishida ijtimoiy muhitning roli.
2. Sotsiogenetik nazariya.

**Ekspert varag`i №2**

1. SHaxs ta`rifi .
2. Kognitivistik nazariya

**Ekspert varag`i №3**

1.SHaxs shakllanishiga ta`sir etuvchi omillar.
2. Rollar nazariyasi.

**2.Amaliy mashg`ulotlar uchun materiallar:**

**T.Elers «SHaxsning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini aniqlash» metodikasi**

SHaxsning ijtimoiy xulq motivatsiyasi va muffaqiyatga yo'nalganligi, uning harakat dasturi hamda maqsadlarida namoyon bo'ladi.

Shaxsning ijtimoiy huquq motivatsiyasi va muofaqiyatga yo'nalganligi, uning harakat dasturi hamda maqsadlarda namoyon bo'ladi. Muvaffaqiyatga yo'nalgan shahslarda o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish sifatlari yuqori bo'ladi, ikkinchi toifadagi kishilarda juda past bo'ladi. Psixologiyada shahsning ijtimoiy hulq motivlari o'rganuvchi hilma-hil metodikalar mavjud. Shulardan biri T.Elersning ,, Muvaffaqiyat motivatsiyasi,, metodikasi hisoblanadi.

**Tajriba maqsadi**: sinaluvchilarning muvaffaqiyatga erishish motivatsiyaini o'rganish.

**Tajriba materialari**: test savolnomasi, javoblar varaqasi qalam kerak bo'ladi.

**Sinaluvchiga ko'rsatma**: sizga 41-ta hukmlar keltirilgan bilank taqdim etiladi. Sizning vazifangiz o'z nuqtayi nazaringizdan kelib chiqib „ha" yoki „yo'q" deb javob berishdan iborat.

„ Ha" javobingizni tegishli „+" belgisi bilan, „Yo'q" javoblarni „ -" belgisi bilan belgilanadi.

**Tajribaning borishi**: tajriba individual yoki guruhiy tartibda o'tkazilishi mumkin.

**Savollar**

1.Hayotdagi muvaffaqiyat tasodiflarga ko'ra oldindan qilingan hisob kitoblarga ko'ra bog'liq deb o'ylayman.
2.Agar men o'zimning sevimli mashg'ulotlarimdan ayrilsam unda men uchun hayotning mazmuni yo'qoladi.
3.Men uchun har qanday ishning oqibati natijasidan ko'ra uning bajarilish jarayoni uhim.
4. Men odamlarning o'z yaqinlari bilan bo'lgan munosabatlarning yahshi emasliklaridan ko'ra ishdagi muvaffaqiyatsizliklardan ko'proq qayg'uradilar deb hisoblayman.
5.Mening fikrimcha ko'pchilik odamlar yaqin kunlarga mo'ljalangan maqsad bilan emas, balki uzoqa mo'ljalangan maqsad bilan yashaydilar.
6.Agar imkoniyat bo'lsa ham hech kim sezmasligiga ishonchim komil bo'lsa ham kinoga chiptasiz kirolmayman.
7.Menning hayotimda muvaffaqiyatsizliklardan ko'ra muvaffaqiyatli kunlar ko'p bo'lgan.
8. Men amaliy ishdan ishbilarmon odamlardan ko'ra his tuyg'uli (ko'ngilchan) odamlar ko'proq yoqadi.
9.Hatto oddiy ishda ham men uning bazi elementlarni takomilashtirishga harakat qlaman.
10. Muvaffaqiyatga erishish haqidagi fikrlarga berilib ketganimda ehtiyotkorlik choralarini ko'rishni unitib qo'yishim mumkin.
11.Bolalaligimda meni ota-onam dangasa deb hisoblar edi.
12. Men o'zimning muvaffaqiyatsizligimga sharoit emas ko'proq o'zimni ayibdor deb hisoblayman.
13. Ota-onam meni qattiq nazorat qilishgan.
14.Menda qobiliyatga nisbatan sabr toqad kuchli.
15.O'z maqsadlarimdan qaytishga muvaffaqiyatlarga erisha olmasligim haqidagi fikr emas balki dangasalik sabab bo'ladi.
16.Men o'zimni o'ziga ishongan odam deb hisoblayman.
17. Muvaffaqiyatga erishish uchun garchi imkoniyatar mening foydamga bo'lmasa ham tavakal qilishim mumkin.
18.Men tirishqoq odam emasman.
19.Hamma ishlar tekis(meyorida) ketayotgan bo'lsa unda menning g'ayratim yana oshadi.
20.Agar men gazetada ishlaganimda unda turli voqiyalar yozishdan ko'ra ko'proq odamlar yaratgan yangiliklarni yozgan bo'lardim.
21.Menning yaqinlarim odatda shahsiy rejalarim bilan ham fikr bo'lmaydilar.
22. Menning hayotga nisbatan bo'lgan talablarimning darajasi o'rtoqlarimning shunday talablaridan pastdir.
23.Menning o'zimni o'ziga ishongan odam deb hisoblayman .
24.Men boshqa ko'pchilikga nisbatan izatalab emasman.
25.Tatil nihoyasida men odatda ishga qaytishimni o'ylab qolaman.
26.Ishlagim kelgan payitlarda, men ishni boshqalarga nisbatan yahshiroq ya sifatliroq bajaraman.
27.Men tirishib sitqi dildan ishlaydigan odamlar bilan tez kirishib ketaman.
28.Men bekorchilik paytlarimda o'zimni behalovat his qilaman.
29.Men boshqalarga nisbatan ko'proq masulyatli ishlarni bajaraman.
30.Men o'zim qaror qabul qilish kerak bo'lganda buni sidqi dildan yahshi bajarishga intilaman.
31.Menni do'stlarim men bazan dangasa deb koyishadi.
32.Mennning yutiqlarim malum manoda kasbdoshlarimga ham bog'liq
33.Rahbarning rayini qaytarish besamara ish.

34.Bazan qanday ishni bajarayotganligi ham bilmaysan.
35.Ishim yurishganda men betoqat bo'lib qolaman.
36.Men odatda o'z yutiqlarimga ham ahamiyat beraman.
37. Boshqalar bilan hamkorlikda ishlaganimda menning ishim boshqalarnikidan samaraliroq bo'ladi.
38.Ko'pgina boshlab qo'ygan ishlarimni ohriga yetkazganman.
39.Men ish bilan band bo'lmagan odamlarga havas qilaman.
40.Men hukimronlikga va amalga intilgan odamlarga havas qilmayman.
41.Men o'zimning haqligimga ishonsam haqiqatni isbot qilish uchun har narsaga borishga tayyorman .

**Natijalar tahlili**

Sinaluvchining test savollariga berilgan javoblari „+" va „-" belgilariga qarab kalit asosida tekshiriladi.

„+" . 2,3,4,5,7,8,9,10,14,15,16,17,21,22,25,26,27,28,29,30,32,37,41.

„-" . 6,13,1,8,20,24,21,36,38,39,

Sinaluvchining to'plagan ballarini hisoblab chiqandan so'ng umumiy ball asosida sinaluvchining muvaffaqiyatga erishish motivlari va usulari haqida hulosa chiqarish mumkin.

**Baholash mezonlari.**

1-10 sinaluvchining muvaffaqiyatga nisbatan motivatsiyasi past darajada
11-16 Motivatsiya darajasi o'rtacha.
17-20 Yuqori
21 va undan yuqori – juda yuqori
9 ta savol sinaluvchining holis javoblarini aniqlaydi.
Agar ushbu savollarga 70% gacha „ Ha" javob bergan bo'lsa unda samimiy

## Nazorat savollari

1. Shaxs ta`rifi.
2. Individ, shaxs, individuallik va ularning o'zaro bog'lanishlari haqida tushuncha.
3. Shaxs shakllanishiga ta`sir etuvchi faktorlar.
4. Shaxs faolligining manbai sifatida ehtiyoj va uning turlari haqida tushuncha.
5. Individ haqida tushuncha.
6. Shaxs va uning tuzilshi.
7. Shaxsning individual tipologik xususiyatlari.
8. Shaxsning tuzilishidagi biologik va ijtimoiy omillar.
9. Shaxs tuzilishining tarkibiy qismi.
10. Shaxsning jamiyatda tutgan o'rni

## Tavsiya etilgan adabiyotlar

### Asosiy adabiyotlar


1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: «O'zbekiston», 2010. – 80 b.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009. – 56 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «Mamlakati-mizni

modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqi-miz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'-yicha O'quv-uslubiy majmua. / Tuzuvchilar: B.Yu. Xodiyev, A.Sh. Bekmurodov, U.V. G'ofurov va boshqalar. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 331
4. «Barkamol avlod yili» davlat dasturi to'g'risida: 2010 yil 27 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1271-sonli qarori // Xalq so'zi gazetasi. – 27.01.2010.
5. Maklakov A.G. Общая psixologiya: Uchebnik. – SPb.: Piter, 2010. – 10-25 s.
6. Nemov R.S. Общая psixologiya. Uchebnik. – SPB.: Piter, 2009. – 13-31 s.
7. Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 9-12 b.
8. Karimova V.M., Hayitov O.E., Akramova F.A., Lutfullayeva N.X. Psixologiya. Darslik. – T.: TDIU «Talaba», 2007. – 9-29 b.
9. Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, «O'zAJBNT» markazi, 2002. – 5-15 b.
10. G`oziyev.E.G`.Umumiy psixologiya . T.2010 -5-16 b.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, ToshDU, 2002 (o`quv qo`llanma).
2. Davletshin M.G., To`ychieva M. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
3. Davletshin M.G., Jalilova S.X. Psixologik muammolar. Toshkent, 2002 (o`quv qo`llanma).
4. Karimova V.M. Psixologiya. O`quv qo`llanma. Toshkent, 2002.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent, 1999.
6. Karimova V.M. Psixologiya. Toshkent, 2012.

***Internet saytlari***

1. www.ziyonet. uz
2. www.psihol.ru
3. www.psiholog.uz

## 3-mavzu: Shaxsning faolligi va ijtimoiy xulq motivasiyasi

1. Shaxs va uning faolligi.
2. Faoliyatning turlari. Jismoniy va aqliy harakatlar.
3. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivasiyasi.
4. Motivlarning anglanganlik darajasi: ijtimoiy ustanovka va uni o'zgartirish muammosi.

**Tayanch so'z va iboralar:**

Faoliyat, o'yin, mehnat, o'qish, ta'lim, motiv, motivasiya, harakat, hatti- harakat. Malaka, odat, salbiy odatlar, ijobiy odatlar, harakatning avtomatlashuvi, faoliyat, shaxs.

Bizning o'y-fikrlarimiz ***so'z-mantiq*** **xotiraning** mazmunini tashkil etadi. O'y-fikrlar nutqsiz mavjud bo'la olmaydi, shuning uchun ham ularga oid xotira ham shunchaki mantiqiy deb emas, balki so'z-mantiq xotira deb ataladi. O'y-fikrlar turli xildagi til shakllarida mujassamlashgan bo'lishi mumkinligi vajidan ularning aks ettirilishi materialning yo faqat asosiy mohiyatini yetkazishga, yoxud uning aynan so'z bilan ifoda etilishiga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Biron narsani esda olib qolish yoki eslash uchun maxsus maqsad bo'lmagan holda esda olib qolish va yana qayta esga tushirish **ixtiyorsiz xotira** deb ataladi

Xayol yoki fantaziya tafakkur kabi yuksak bilish jarayonlari qatoriga kirib, kishining o'ziga xos insoniy xarakterga ega bo'lgan faoliyatlariga namoyon bo'ladi. Mehnatning tayyor natijasini hayolga keltirmay turib ishga kirishib bo'lmaydi. Fantaziya yordami bilan kutilayotgan natijani tasavvur qilish-inson mehnatining hayvonlar instinktiv faoliyatidan tub farqidir. Istalgan mehnat jarayoni zarur tarzda hayolni o'z ichiga qamrab oladi.




eslab qolishga tayyorlik qonuni
assotsiatsiyalar qonuni
ilgarigi bilimlar qonuni
birin-ketinlik qonuni
qiziqish qonuni
kuchli taassurotlar qonuni
anglanganlik qonuni
Xotira qonunlari
tormozlanish qonuni


XOTIRADA SAQLASH JARAYONLARI
sensor xotira bloki
qisqa muddatli xotira bloki
uzoq muddatli xotira bloki
ma'lumot tushdi, lekin saqlanmadi
ma'lumot saqlanmadi
muhim ma'lumot ajratib olindi


XOTIRA NAZARIYALARI
Psixologik nazariya
Neyrofiziologik nazariya
Bioximik nazariya


ESGA TUSHURISH TURLARI
T a n i s h
E s l a s h
Bevosita eslash
Oradan vaqt otkazib eslash
Ixtioyrsiz eslash
Ixtiyoriy eslash

## X A Y O L




*Xayol* deb biz ilgari idrok qilmagan, tajribamizda uchratmagan narsa va xodisalarning obrazlarini idrok qilmagan, tajribamizda uchratmagan narsa va xodisalarning obrazlarini mavjud xotira tasavvurlari asosida miyamizda yaratishda ifodalanadigan faoliyatga aytiladi

## MANTIQIY VA MEXANIK XOTIRANI O`RGANISH

### Ikki qator so`zlarni esda qoldirish metodi yordami bilan mantiqiy va mexanik xotirani tekshirib ko`rish

**Tadqiqotning maqsadi**: ikki qator so`zlarni esda qoldirish metodi yordami bilan mantiqiy va mexanik xotirani tekshirib ko`rish**Tadqiqot uchun zarur jihozlar**: ikki qator so`zlar. Birinchi qator so`zlar o`zaro ma'no jihatidan bog`lanishga ega. Ikkinchi qatordagi so`zlar esa o`zaro ma'no jihatidan bog`lanishga ega emas.

| Birinchi qator | Ikkinchi qator |
|---|---|
| qo`g`irchoq-o`ynamoq | qo`ng`iz-stul |
| tovuq-tuxum | taroq-er |
| qaychi-qirqmoq | kompas-elim |
| ot-arava | qo`ng`iroq-o`q |
| kitob-o`qituvchi | chittak-singil |
| kapalk-chivin | gultuvak-tramvay |
| shchetka-tish | dori-divan |
| baraban-o`quvchi | tosh-shamol |
| qor-qush | botinka-samovar |
| xo`roz-qichqirmoq | grafin-olmoq |

| | |
|---|---|
| siyoh-daftar | gugurt-yilqi |
| sigir-sut | qirg`ich-dengiz |
| paravoz-haydamoq | shlyapa-asalari |
| nok-kompot | baliq-yong`in |
| chiroq-oqshom | arra-tuxum |

Tadqiqotning borishi: tekshirish ikki seriyada o`tkaziladi.

**B i r i n c h i s e r i y a.** Tekshiruvchi tekshiriluvchiga birinchi qatordagi 15 juft so`zni (har bir juft so`z orasida 5 sekund tanaffus bilan) o`qib beradi. O`qib bergandan 10 sekund tanaffusdan keyin tekshiriluvchi o`zi eshitgan juft so`zlarni g`og`ozga yozadi.

So`ngra tavsiya qilingan so`zlar bilan tekshiriluvchining esda saqlab qolib yozgan so`zlarini solishtirib, mantiqiy xotiraning koeffitsenti hisoblab chiqariladi. Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilib qo`yiladi:

**Mantiqiy xotiraning hajmi**

| ***Birinchi qator so`zlarining soni*** | ***Esda qoldirilgan so`zlarning soni*** | ***Mantiqiy xotira koeffitsenti*** |
|---|---|---|
| | | |

## SHAXSDAGI XAYOL XUSUSIYATINI ANIQLASH TESTI

Har birimiz qayolimizda qandaydir voqea yuz berishini kutib yashaymiz. Ammo o`zlari sarguzasht qidirib yuruvchilar ham bor. Xo`sh, siz sarguzashtsevar, tavakkal qilishga qodirmisizq Buni bilmoq istasangiz, quyidagi test savollariga javob bering.

a) tez-tez xizmat safarlari bo`ladigan ishni yoqtiraman;
b) bir joyda o`tirib ishlash menga ma'qul.
a) sovuq qavodan jonlanib ketaman;
b) sovuqda qayolim faqat uyga qanday etib olishda bo`ladi.
a) ertaga kech kim bilmaydigan, beqaror davrda yashagim keladi;
b) har bir kishi qimoyalangan, kelajagi aniq jamiyatda yashash zavqli.
a) ba'zan tezlik bilan ketayotgan mashinada sayr qilgim keladi;
b) katta tezlikdagi mashinalarda o`tirishdan qo`rqaman.
a) shartnoma asosida, ishbay xaq to`lanadigan ishni ma'qul ko`raman;
b) aniq, barqaror, ma'lum maoshga ega ish men uchun afzal.
a) mening fikrimga qo`shilmasliklari menda ko`proq raqbat uyqotadi;
b) fikrimga qarshilik qilganlar bilan baqslashib o`tirishga toqatim yo`q.
a) gipnoz ta'sirida bo`lib qolishni qis etgim keladi;
b) meni gipnozlashlarini istamayman.
a) qayotda berilgan bor ne'matlardan totib ko`rish kerak;
b) qayotdagi asosiy maqsadim-tinchlik va baxt.
a) dengiz yo bo`lmasa sovuq suvli qovuzga o`zimni birdan tashlayman;
b) sovuq suvga sekinlik bilan kiraman.
a) yangi, original qo`shiqlarni eshitgim keladi;

b) zamonaviy musiqani yoqtiraman.
a) zerikarli bo`lib qolishdan yomoni yo`q;
b) eng katta kamchilik – qo`pollik va tarbiyasizlikdir.
a) qis-tuyquga boy insonlarni yoqtiraman, garchi ular aniq muvozanatga ega bo`lmasalar-da;
b) xotirjam insonlarni yoqtiraman.
a) mototsikl qaydab ko`rish istagidaman;
b) mototsiklga qatto o`tirib qam ko`rmasdim
.

NATIJALAR:

«a» javoblari ko`p bo`lsa: Sarguzashtga boy voqealarga duch kelishga bo`lgan qiziqishingiz juda kuchli. Asablaringizni qitiqlab qo`yuvchi qodisalar ishtirokchisi bo`lishga intilib, turli sarguzashtnamo voqealarga aralashib yurasiz. qarakatlaringizni oldindan o`ylab kÿrmasligingiz qam shu qiziqishlaringiz tufayli bo`lsa kerak. Ammo eqtiyotkorroq bo`lishni qam unutmang. Amalga oshirmoqchi bo`lgan qarorlaringizni oldindan o`ylab kÿring. Axir tavakkalchilik qamisha qam omad keltiravermaydi-ku.

«b» javoblari ko`p bo`lsa: O`zingizda ba'zan sarguzasht va turli antiqa voqealarga nisbatan bo`ladigan qiziqishni vaqtida jilovlay olasiz. To`qri, siz yangiliklarga o`chsiz, ammo sovuqqonlik hamda muloqazakorlik bilan ish tutasiz. Ba'zan ichki sezgingizga ham ishoning, tavakkal bosilgan qadam ham yutuqlar keltirishi mumkin.

Kishining butun hayoti uning oldiga hamisha jiddiy va kechiktirib bo’lmaydigan vazifalar va muammolarni qo’yadi. Bunday muammolarning, qiyinchiliklarning, tasodiflarning yuzaga kelishi atrofimizdagi voqelikda hali juda ko’p noma’lum, tushunib bo’lmaydigan, kutilmagan, yashirin narsalar borligidan dalolat beradi. Demak, olamni odaa sari chuqurroq o’rganib odaam, unda odamlar va narsalarning tobora yangi-yangi jarayonlarini, xususiyatlarini va o’zaro munosabatlarini ochish lozim. Tafakkur shuning uchun ham zarurki, hayot va faoliyat davomida har bir individ narsalarning qandaydir yangi, ilgari ma’lum bo’lmagan xususiyatlariga duch keladi.

***Tafakkur-jiddiy ravishda yangilikni qidirish va ochishga bog’liq, aloqador psixik jarayondir, uning tahlili va sintezi jarayonida voqelikni bavosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir. Tafakkur amaliy faoliyat asosida hissiy bilishlardan paydo bo’ladi va hissiy bilish chegarasidan ancha tashqariga chiqib ketadi.***

**Tafakkur**-bu predmet va hodisalarning umumiy xususiyatlarini aks ettirish, ular o’rtasidagi qonuniy aloqalar hamda munosabatlarni topish jarayonidir. Boshqacha qilib aytganda, tafakkur-bu borliqni umumlashtirilgan holda va bevosita aks ettirishdir. Tafakkur-inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Istalgan ixtiyoriy faoliyat, u xoh o’quv, xoh ishlab chiqarish faoliyati bo’lsin, uning natijalarini oldindan ko’rishni albatta talab qiladi. Biroq oldindan ko’rish uchun dalillarni umumlashtirish va shu umumlashmalar asosida xuddi shunga o’xshash boshqa dalillarga ham tadbiq etish mumkin bo’lgan xulosalar chiqarish kerak bo’ladi. Bu ikkiyoqlama yondashish yakkadan umumiyga, umumiydan yakkaga-tafakkur orqali amalga oshiriladi. Voqelik tafakkurda idrok va tasavvurlardagiga qaraganda chuqurroq va to’laroq aks etadi. Narsa vahodisalar o’rtasidagi eng muhim bog’lanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Binobarin, tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to’g’ri), to’liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishga (bilishga), insonning tag’in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug’ullanishiga imkon beradi.




**Tafakkur qilish jarayonining mahsullari**




**Fikrlash jarayonini ta'minlovchi operasiyalar klassifikasiyasi**






**Mantiqiy tafakkur mahsuldorligini aniqlash. A.M.Matyushkin metodikasi.**

**Tajriba maqsadi**: Metodika bilan tanishish va sinaluvchining mantiqiy tafakkur maxsuldorligini aniqlash

**Tajriba materiallari**: Sinaluvchiga taqdim etiladigan maxsus blank va qalam.

**Sinaluvchiga ko`rsatma:** Bu topshiriq sizning tafakkuringizning lug`at mahsuldorligini o`lchaydi. Siz imkon darajada tezroq o`zbek tilidagi «q» harfi bilan boshlanadigan turli xil otlarni eslashingiz va yozishingiz lozim. Atoqli ot, sifat,fe'l boshqa so`zlarni yozish mumkin emas. Ishning boshlanishi vaqtini aniq belgilang. Birinchi qatorda «q» harfi bilan boshlanadigan 30 ta so`zni yozing. Bu ishni bajarish uchun sarflangan vaqtni belgilang. Uning davomida ikki qatordan qo`shimcha yana «q» harfi bilan boshlanadigan 15 ta so`zni eslang va yozing.

Shundan so`ng avvalgi qatorga sarflangan vaqtni belgilang. Agar keyingi 15 ta so`zni yozishingiz qiyin bo`lsa, sabr qiling. Ammo 10 minut davomida ishni to`xtatishingiz lozim va darxol sarflangan vaqtni qayd qiling.

**Natijalar tahlili**. Barcha 45 ta so`zni yozish uchun sarflangan vaqt ikkala qatorni to`ldirish uchun ketgan vaqt yig`indisiga teng.

Sinaluvchining mantiqiy tafakkurini baholash:

7 dan 10 minutgacha mantiqiy tafakkur mahsuldorligi yuqori;

10 dan 15 gacha mantiqiy tafakkur mahsuldorligi o`rtacha

15 dan 18 gacha mantiqiy tafakkur mahsuldorligi pasi

undan yuqorisi juda past.

**Bilimlarni tekshirish uchun test savollari:**

1. Individning idrok qilgan narsa va hodisalarni esda olib qolishi, esda saqlab turishi, qayta esga tushurish va unitish jarayoni?

A. Xotira. B. Unitish, V. Uzoq muddatli xotira, G. Operativ Xotira.

2. Harakatlar yoki harakatlar sistemasini esda olib qolish, esga tushirish, esda saqlash?

A. Harakat xotirasi, B. So`z-mantiq xotira, V. Eydetik xotira, G.Obrazli xotira

3. Narsa va xodisalar, ularning xususiyatlarini maqsad qo`ymagan holda, irodaviy zo`riqish esda olib qolish, esga tushirish, esda saqlash?
A. Ixtiyorsiz xotirasi B. Ixtiyoriy xotirasi
V. Eydetik xotirasi, G.Obrazli xotira.

4. Narsa va xodisalar, ularning xususiyatlarini maqsadli ravishda, irodaviy akt ishtirokida esda olib qolish, esga tushurish, esda saqlash?
A. Ixtiyoriy xotira, B. Ixtiyorsiz xotira,
V. Eydetik xotira, G.Obrazli xotira.

5. Idrok qilingan narsa va xodisalarning obrazlarini esda olib qolish, esga tushirish, esda saqlash?
A Obrazli xotira, B. So`z-mantiq xotira,
V. Eydetik xotira, G. Harakat xotirasi

6. Quyida tushirib qoldirilgan xotira turini toping: harakat, obrazli, so`z mantiqiy, ……..
A. Eydetik B. Qisqa muddatli V Hissiy G.Ixtiyorsiz.

7. Xotiraning fiziologik asosi?
A). Bu nimaq refleksi
B). Ehtiyoj va faollik
C).Refleks
D). Muvaqqat nerv bog`lanishlarining aktuallashuvi
8. Tafakkur jarayonlari: taqqoslash, sintez, umumlashtirish, ….. Tushirib qoldirilganini toping.
A. Analiz B. Deduktsiya V. Xulosa chikarish G. Anglash.

9. Predmet, narsa, hodisalar va ularning xossalari orqasidagi bog`lanishlarin umumlashtirib, vositali aks ettirish?
A. Tafakkur. B. Sezgi V. Idrok G. Xotira

10. Narsa va hodisalar orasidagi bog`lanishlarini aks ettiruvchi tafakkurning mantiiqiy shakli?
A. Tushuncha B. Hukum V. Xulosa chiqarish G. Sintez.

11. Narsa va xodisalarni fikran qismlarga ajratish Bilan bog`liq bo`lgan tafakkur jarayoni?
A. Analiz, B. Sintez, V. Xulosa chiqarish, G. Deduktsiya

12. Ikki yoki undan ortiq hukm asosida yangi hukm keltirib chiqarish?
A. Xulosa chiqarish, B. Tushuncha, V. Hukum, G. Sintez.

13. Tafakkurning mantiqiy shakllari keltirilgan qator
A. hukm, tushuncha, xulosa chiqarish
B. analiz, sintez, taqosslash
V. abstraktsiya, umumlashtirish, klassifikatsiya
G. kreativlik, regidlik, tanqidiylik
14. Ikki yoki undan ortiq xukm asosida yangi xukm keltirib chiqarish
A). tushuncha
V). xukm
S). xulosa chiqarish
D). sintez

15. Tafakkurning mantiqiy shakllari: xukm, tushuncha……
A). analiz

V). sintez
S). xulosa chiqarish
D). abstraktsiya

**Joriy nazoratni baholash mezoni:**

| № | Foizda % | Ballda | Baho | Talabaning bilim darajasi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 55 | 2,75 | 2 | Qoniqarsiz |
| 2 | 56-70 | 2,8-3,5 | 3 | Qoniqarli |
| 3 | 71-85 | 3,5-4,2 | 4 | Yaxshi |
| 4 | 86-100 | 4,3-5 | 5 | A'lo |

**Amaliy mashg'ulotda ta'lim texnologiyasi**

<table>
<tr><td>O'quv soati: 2 soat</td><td colspan="2">Talabalar soni:</td></tr>
<tr><td>O'quv mashg'ulotining shakli</td><td colspan="2">amaliy mashg'ulot</td></tr>
<tr><td>Mavzu rejasi</td><td colspan="2">1. Xotiraning ta'rifi.<br>2. Xotira turlari.<br>3. Xotiraning fiziologik nazariyasi..<br>4. Xayol turlari.<br>5. Xayol jarayonining fiziologik asoslari.<br>6. Tafakkurning umumiy xarakteristikasi.<br>7. Tafakkur va nutq.<br>8. Tafakkur turlari.<br>9. Tafakkur operasiyalari.</td></tr>
<tr><td colspan="3">Mashg'ulotning maqsadi Talabalarga bilish jarayoni: xotira, xayol, tafakkur to'g'risida nazariy bilimlar berish, xotira, xayol, tafakkur jarayonlariga xos qonuniyatlarni o'zlashtirish hamda xotira , xayol, tafakkurni rivojlantirish yo'llari bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Pedagogik vazifalar:<br>• Xotira, xayol, tafakkur haqida ma`lumot berish.<br>• Xotira ,xayol, tafakkur ning boshqa psixik jarayonlari bilan bog`liqligini asoslash.<br>• Xotira ,xayol, tafakkur ning fiziologik mexanizmlarini aniqlash.<br>• Xotira ,xayol, tafakkur va shaxs tajribasining boyligi sifatlilik darajasi haqida tushuntirish</td><td>O'quv faoliyati natijalari:<br>• Xotira ,xayol, tafakkur va ma'lumotlarning miyada saqlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Xotiraning samaradorligi. Eslab qolish xususiyatiga ko'ra xotiraning turlari. Kutilmagan ma'lumot. Ma'lumotning mazmun yoki shakl jihatdan bir-biriga yaqinligi. Esda saqlash vaqti bilan esga tushirish vaqti o'rtasidagi farq. Xotiraning sakkiz qonuni. Xotira, xayol, tafakkur rivojlantirish yo'llari. O'zlashtirilish lozim bo'lgan ma'lumotning xotirada saqlanish bosqichlari. Mnemonika yoki mnemotexnika. Mnemotexnik usullar. Xotira , xayol, tafakkurning sifatlilik darajasi haqida to'liq axborot oladilar;</td></tr>
<tr><td colspan="2">Ta'lim metodlari</td><td>Ma'ruza, savol-javob, suhbat, munozara,"Blits so'rov", "Klaster" usullari.</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| ***Ta'lim vositalari*** | Ma'ruza matni, kompyuter texnologiyalari format qog'ozlari, markerlar, skotch, |
| ***Ta'lim shakllari*** | Frontal, guruhlarda ishlash. |
| ***O'qitish shart-sharoiti*** | Texnik vositalardan foydalanish va guruhlarda ishlashga mo'ljallangan auditoriya |
| ***Monitoring va baholash*** | Og'zaki nazorat, savol-javob, reyting tizimi asosida baholash. |

**Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi**

| ***Faoliyat bosqichlari*** | ***Faoliyatning mazmuni*** | |
|---|---|---|
| | ***O'qituvchining*** | ***Talabaning*** |
| **I. Kirish bosqichi (15 daqiqa)** | 1.1.Mavzuning nomi, maqsadi, kutilajak natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatliligini va dolzarbligi asoslaydi.<br>1.2.Quyidagi savollar yordamida talabalarni faollashtiradi:<br>1. Bilish jarayonlari deganda psixologiyada aynan nimalar nazarda tutiladi?<br>2. Bilish jarayonlari va ularning umumiy xususiyatlari nima bilan izohlanadi?<br>3. Xotira ,xayol, tafakkur turlari<br>4. Eslab qolish xususiyatiga ko'ra xotiraning qanday turlari bor va ularni qisqacha izohlab bering?<br>5. Xotiraning sakkiz qonuni qanday tasniflangan?<br>6. O'zlashtirilish lozim bo'lgan ma'lumotning xotirada saqlanish bosqichlari qanday mezonlarga asoslanadi?<br>Bilimlarni faollashtirish jarayonida, o'quv muammosini yechish faoliyatida faol ishtirok etish uchun talabalar egallagan bilimlarning yetarliligini aniqlaydi. | Tinglaydilar.<br>Mavzu nomini va rejasini yozib oladilar.<br>Savollarni muhokama qilib, ularga javob beradi. |
| **II. Asosiy bosqich (55 daqiqa)** | 2.1.Muammoli vazifalar va savollarni o'qiydi.<br>2.2.Talabalar bilan birgalikda muammolarni ishlab chiqishga harakat qiladi.<br>Muammoni ishlab chiqishda talabalar bilan birgalikda taklif qilingan variantlarni tahlil qiladi. Taklif qilingan variantlarni aniqlashtiradi, o'zgartirishlar kiritadi va ulardan bittasida to'xtaydi.<br>2.3. Talabalarni uchta kichik guruhga bo'ladi va hamkorlikda muammoli vazifani | O'z fikrlarini bildiradilar.<br>Uchta guruhga bo'lina-dilar.<br>Taklif qilingan muammoli vazifani hal etishga kirishadilar.<br>Natijalarni taqdim etadilar.<br>Boshqa guruh |

| | | |
|---|---|---|
| | hal etishni taklif qiladi.<br>2.4.Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Yo'naltiruvchi, maslahatchi sifatida ishtirok etadi. Javoblarni aniqlashtiradi, to'ldiradi, izoh beradi va tuzatishlar kiritadi.<br>2.5.Muammoli vazifani hal etishda yuzaga kelgan barcha qiyinchilik va tafovutlarni qayd etib, xulosalar qiladi.<br>2.6.Talabalar bilan birgalikda javoblarning to'laligini baholaydi, to'liq bo'lmagan javob larni o'zi to'ldiradi.<br>2.7.Har bir talabaga muammoni yechishda qilgan xulosalarini jadvalda qayd etishlarini so'raydi.<br>2.8.Seminar mavzusi bo'yicha yakuniy xulosalar qiladi. | a'zola-rining bergan savollariga javob beradi.<br>Eshitadilar, konspekt daftarlariga qisqacha qayd qilishadi.<br>Muammoni hal etish variantlari yuzasi-dan o'z fikrlarini bildiradilar. |
| **III. Yakuniy bosqich (10 minut)** | 3.1.Mavzuni umumlashtiradi, umumiy xulosalar qiladi, yakun yasaydi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy tomonlariga qaratadi.<br>3.2.Amalga oshirilgan faoliyatning kelajakda kasbiy faoliyatlari uchun zarurligini qayd qiladi.<br>3.3.Mustaqil ishlashlari uchun vazifa beradi: (1) nazorat savollariga og'zaki javob berish; (2) qo'shimcha adabiyotlardan mavzuga tegishli bo'lgan yangi ma'lumotlarni to'plash. | Eshitadilar.<br><br><br><br><br><br><br>Vazifani yozib oladilar. |

1-ilova

| | |
|---|---|
| **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** | 1.Maklakov A.G. Obshaya psixologiya: Uchebnik. – SPb.: Piter, 2010. – 36-51 s.<br>2.Nemov R.S. Obshaya psixologiya. Uchebnik. – SPB.: Piter, 2009. – 32-39 s.<br>3.Ibragimov X.I. Pedagogik psixologiya: pedagogika va psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. – 20-38 b.<br>4.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 15-20 b.<br>5.Obshaya psixologiya. Ekzamenasionniye otveti. – M.: «Otvet», 2008. – 14-36 s.<br>6.Rubinshteyn S.L. Osnovi obshyey psixologii. – SPb.: Piter, 2008. – 85-113 s.<br>7.Karimova V.M., Hayitov O.E., Akramova F.A., Lutfullayeva N.X. Psixologiya. Darslik. – T.: TDIU «Talaba», 2007. – 30-38 b.<br>8.Hayitov O.E. Psixodiagnostika: O'quv qo'llanma. –T.: TDIU «Talaba», 2007.–225 b.<br>9.Tixomirov O.K. Psixologiya: Uchebnik / Pod red. O.V. |

| | |
|---|---|
| | Gordeyevoy. – M.: Vissheye obrazovaniye, 2006. – 538 s.<br>10.Obshaya psixologiya: Uchebnik / Pod red. prof. A.V. Karpova. – M.: Gardariki, 2005. – 232 s.<br>11.Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, «O'zAJBNT» markazi, 2002. – 205 b. |

**Nazorat savollari**

1. Xotiraning ta'rifi.
2. Xotira turlari.
3. Xotiraning fiziologik nazariyasi..
4. Xayol turlari.
5. Xayol jarayonining fiziologik asoslari.
6. Tafakkurning umumiy xarakteristikasi.
7. Tafakkur va nutq.
8. Tafakkur turlari.
9. Tafakkur operasiyalari.
10. Tafakkurning fiziologik asoslari.

**Tavsiya etilgan adabiyotlar**

**Asosiy adabiyotlar**


1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: «O'zbekiston», 2010. – 80 b.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: «O'zbekiston», 2009. – 56 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «Mamlakati-mizni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqi-miz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'-yicha O'quv-uslubiy majmua. / Tuzuvchilar: B.Yu. Xodiyev, A.Sh. Bekmurodov, U.V. G'ofurov va boshqalar. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 331
4. «Barkamol avlod yili» davlat dasturi to'g'risida: 2010 yil 27 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1271-sonli qarori // Xalq so'zi gazetasi. – 27.01.2010.
5. Maklakov A.G. Obщaya psixologiya: Uchebnik. – SPb.: Piter, 2010. – 10-25 s.
6. Nemov R.S. Obщaya psixologiya. Uchebnik. – SPB.: Piter, 2009. – 13-31 s.
7. Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 9-12 b.
8. Karimova V.M., Hayitov O.E., Akramova F.A., Lutfullayeva N.X. Psixologiya. Darslik. – T.: TDIU «Talaba», 2007. – 9-29 b.
9. Karimova V.M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, «O'zAJBNT» markazi, 2002. – 5-15 b.
10. G`oziyev.E.G`.Umumiy psixologiya . T.2010 -5-16 b.

**Qo'shimcha adabiyotlar**
1.Jdankin N.A. Motivatsiya personala. Izmereniye i analiz. Ucheb.-prakt. posob. – M.: Finpress, 2010. – 272 s.
2.Hayitov O.E.. Iqtisodiy psixologiya: O'quv qo'llanma. Oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun. – T.: «Iqtisodiyot» nashr., 2009. – 230 b.
3.Maslou A. Motivatsiya i lichnost. 3-ye izd./ per s angl. – SPB.: Piter, 2009.– 352 s.
4.Ivanov, P.I. Umumiy psixologiya: Darslik. O'zROO'MTV. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – 9-12 b.
5.Hayitov O.E., Ochilova G.O. Tadbirkorlik psixologiyasi: O'quv qo'llanma. 1-kitob. Oliy o'quv yurtlari magistratura bosqichi talabalari uchun // Prof. V.M. Karimovaning umumiy tahriri ostida. – T.: «Fan va texnologiya», 2008. – 144-b.

***Internet saytlari***
1. www.ziyonet. uz
2. www.psihol.ru
3. www.psiholog.uz

## 6-mavzu: Shaxning individual xususiyatlar va ularni diagnostika qilish

1. Temperament to`g`risida umumiy tushuncha.
2. Temperamentning fiziologik asoslari to`g`risida tushuncha.
3. Temperament tiplarining psixologik tavsifi.
4. Xarakter tuzilishi xususiyatlari
5. Xarakterning tarkib topishi.
6. Qobiliyatlar haqida tushuncha.
7. Qobiliyatlar tuzilishi.
8. Talantning paydo bo`lishi va tuzilishi.

**Tayanch so'z va iboralar:**

Temperament, individual xususiyatlar, vazifalar, psixik holatlar. nerv sistemasi, I.P.Pablov,B.M.Teplov,E.Krechmer,U.Sheldon,Gippokrat
Temperament turlari: xolerik, melanxolik, sangvinik, flegmatik , temperamentning nerv fiziologik asosi , temperament va shaxs haqida tushuncha beriladi. Temperamentning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari
xarakter; irodaviy sifatlar; emotsiya (hissiyot)lar; shaxs iqtidori; qobiliyatlar; intellekt; orttirilgan sifatlar; intellektual salohiyat;. qobiliyatlarning psixologik strukturasi; qobiliyatlar va qiziqishlar diagnostikasi; nutqining xususiyatlari; tashqi qiyofa; fizionomika; xiromantiya; konstitusion nazariyalar.
**Mashg'ulotni o'tkazish joyi :** auditoriya
**Mashg'ulotning jihozlanishi :** tarqatma materiallar, texnik vositalar
**Mashg'ulotning davomiyligi :** 2 soat
**Mashg'ulotning maqsadi :** Talabalarga "individ" va "individuallik" tushunchalari va xususiyatlari to'g'risida nazariy bilimlar berish, individual-tipologik xususiyatlar klassifikasiyasiga xos qonuniyatlar va qoidalarini o'zlashtirish hamda shaxs temperamenti, xarakteri va qobiliyatlari diagnostikasi bo'yicha ***amaliy ko'nikmalarni*** shakllantirish.
**Motivasiya:** Biz yuqorida sanab o'tgan individual psixologik xususiyatlarning ahamiyati katta. Ular bizning jamiyatdagi o'rnimiz, obro'-e'tiborimiz, ishdagi va o'qishdagi yutuqlarimiz, inson sifatidagi qiyofamizni, kim ekanligimizni, kerak bo'lsa, o'zligimizni belgilaydi. Demak, individual sifatlar bizning ongli hayotimizning ajralmas qismi, idrokimiz, xotiramiz va fikrlarimz yo'naltirilgan muhim predmet ekan.
**Fanlararo va fan ichida big'liqlik:** "individ" va "individuallik" tushunchalaridir. "Individ" tushunchasi umuman "odam" degan tushunchani to'ldirib, uning ijtimoiy va biologik mavjudot sifatida mavjudligini tasdiqlaydi. Bu tushuncha uni bir tomondan, boshqa odamlardan farqlovchi

belgi va xususiyatlarini o'z ichiga oladi, ikkinchi tomondan, o'ziga va o'ziga o'xshashlarga xos bo'lgan umumiy va xarakterli xususiyatlarni qamrab oladi. Demak, individ – insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyadir.

**Mashgulot mazmuni:**

**Назарий қисм**

Kishilar o`rtasidagi individual-psixologik tafovutlarda psixikaning dinamik (o`zgaruvchan) deb atalmish xususiyatlari muhim o`rin egallaydi. Bunda eng avvalo psixik jarayonlar va holatlar intensivligi darajasi, shuningdek, ularning u yoki bu tezlikda kechishi nazarda tutiladi. Ma'lumki, odamlar xulq-atvor va faoliyat motivlari nisbatan teng bo`lganda, bir xil tashqi ta'sir etganda, bir-biridan ta'sirchanligiga va ko`rsatayotgan energiyasiga ko`ra sezilarli darajada farq qiladilar. Jumladan, bir xil kishi sekinlikni, boshqasi shoshilinchni yoqtiradi, bir xil odamlarga hissiyotlarning tez uyg`onishi xos bo`lsa, boshqasiga esa sovuqqonlik xosdir, boshqa birovni keskin imo-ishoralar, ma'noli mimika, boshqasining harakatlarida og`ir-bosiqlik, yuzining kam harakat qilishi ajratib turadi.Harakatlanish xususiyatlariga qarab farqlanishlar har qanday teng sharoitlarda individning umumiy faolligi, harakatchanligi va emotsionalligiga binoan yuz beradi.

Shaxs-qaytarilmas, u o`z sifatlari va borligi bilan noyob. Ana shu qaytarilmaslik, noyoblikning asosida uning individual psixologik xususiyatlari majmui yotadi. Insonning individualligini izohlovchi xususiyatlardan biri bu–temperamentdir.

Temperament lotincha «temperamentum» degan so`zdan olingan bo`lib, buning ma'nosi «aralashma», «qotishma» demakdir. Temperament deganda biz odatda, kishining tabiiy tug`ma xususiyatlari bilan bog`liq bo`lgan individual xususiyatlarini tushunamiz. Temperament va layoqatlar individning dinamik psixik faoliyatini ta'minlovchi sifatlarini o`z ichiga oladi. Kishi temperamentiga aloqador sifatlarning o`ziga xosligi shundaki, ular kishi bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir emotsional holatdan boshqasiga, bir malakalarni boshqasi bilan almashtirgan paytlarda reaktsiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta'minlaydi va shu nuqtai nazardan qaraganda, TEMPERAMENT-shaxs faoliyati va xulqining dinamik va emotsional-hissiy tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuidir.




**Individuallikni izohlovchi xususiyatlar majmuasi**




**Nerv jarayonlari va temperament tiplari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik**






***Xarakter-ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topi, shaxsning atrofdagi voqelikka va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatida ifodalanadigan, uning muayyan sharoitlardagi xatti-harakatlarini belgilab beradigan barqaror individual psixik xususiyatlar yig'indisi. Xarakterni tashkil qiluvchi xususiyatlar xarakter xususiyatlari deyiladi.***

Shaxsning individualligi psixik jarayonning o`tish xususiyatlarida (yaxshi xotira, xayol, zehni o`tkirlik va h.k.) va temperament xususiyatlarida namoyon bo`ladi. Xarakter - shaxsning va muomalada tarkib topadigan va namoyon bo`ladigan barqaror individual xususiyatlar bo`lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi.

Kishining xarakterini tashkil etuvchi individual xususiyatlar birinchi navbatda irodaga - (dadillik, qo`rqoqlik) va hissiyotga (xushchaqchaqlik, qovog`i soliqlik, tushkunlik va h.k.) taalluqli bo`ladi.

Xarakterning shaqllanishi shaxsning rivojlanish darajasiga ko`ra turli xildagi sharoitlar bilan qo`shilgan holda (oilada, do`stlar davrasida, mehnat va o`quv jamoasida, asotsial uyushmada va h.k.) yuz beradi. Uning uchun referent bo`lgan guruhda shaxsning individuallashuvi shaqllanadi. Kishining xarakterini bila turib, uning u yoki bu holatlarda o`zini qanday tutishini, kishi xulq atvorini qanday izga solishini oldindan bilish mumkin. Jumladan, o`quvchilarga jamoat topshiriqlarini taqsimlayotib, ularning nafaqat bilimlarini va malakalarinigina emas, balki xarakterini ham hisobga olish lozim.

Shaxsning individual xususiyatlari turli-tumandir. Masalan: kamtarlik, mag'rurlik, xudbinlshik, samimiylik, rostgo'ylik, bahillik, tortinchoqlik, quvnoqlik va hokazo. Xarakter hislatlari ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Xarakterning ma'naviy sifatlari-mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, mehribonlik, tashabbuskorlik, kamtarlik kabilar.

2. Xarakterning irogdaviy hislatlar-maqsadga intiluv-chanlik, qat'iylik, jasurlik, mardlik, matonatlilik, o'z-o'zini tuta bilish kabilar.

Inson shaxsining xarakteri hamisha ko`p qirralidir. Unda alohida xususiyatlar yoki tomonlari ajralib ko`rsatilishi mumkin, lekin ular bir birlaridan ajratilgan, alohida holda mavjud bo`lmaydi, balki, ma'lum darajada xarakterning barqaror tuzilishini tashkil etgan holda o`zaro bog`liq bo`ladi.

## XARAKTERNI O`RGANISH METODIKASI

**Xarakter** - shaxsning alohida insonlar va insonlar guruhi, o`z – o`ziga, vaziyatlar, narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlaridan orttiradigan sifatlarini o`z ichiga oladi.

## K.YUNGNING XARAKTER TIPINI ANIQLASH METODIKASI

Berilgan savollarga javob variantlaridan birini tanlash kerak.

1. Qaysi biri siz uchun muhimroq?
A)kichikkina do`stlar davrasi;
B)ko`pgina o`rtoqlar davrasi.

2. Qanday kitoblar sizga ko`proq yoqadi?
A) qiziqarli syujeti;
B) odamlar ruhiy kechinmalari aks ettirilgan.

3. Ishda nimaga ko`proq yo`l qo`yishingiz mumkin?
A)kechikish;
B) xatoliklar.

4. Agar yomon ish qilib qo`ysangiz;
a)juda qayg`urasiz;
b)unchalik qayg`urmaysiz.

5. Odamlar bilan qanday chiqishasiz?
A)juda tez va oson;
B) sekin, ehtiyotkorlik bilan

6. O`zingizni arazkash deb hisoblaysizmi?
A)ha;
B) yo`q.

7. Chin dildan kulishga moyilmisiz?
A) ha;
B) yo`q.

8. Siz qandaysiz?
A) kamgap;
B) sergap.

9. Siz ochiqmisiz yoki hislaringizni birovlardan yashirasizmi?
A) ochiqman;
B) yashiraman.

10. O`z his-kechinmalaringizni tahlil qilishni yoqtirasizmi?
A) ha;
B) yo`q

11. Ko`pchilik davrasida bo`lganda, Siz:
A) tinmay gapirasiz
B)boshqalarni tinglaysiz

12. Tez-tez o`zingizdan norozi bo`lib turasizmi?
A) ha;
B) yo`q.

13. Biror nimalarni tashkil qilishni yoqtirasizmi?
A) ha;
B) yo`q.

14. Sirlaringiz yozilgan kundalik tutishni hohlarmidingiz?
A) ha;
B) yo`q

15.Biror narsaning qaroridan uni bajarishga tez o`tasizmi?
A) ha;
B)yo`q.

16. Kayfiyatingizni tez o`zgartira olasizmi?
A) ha;
B) yo`q.

17. O`zgalarni ishontirib, ularga o`z fikringizni o`tkazishni yaxshi ko`rasizmi?
A) ha;
B)yo`q.

18. Sizning harakatlaringiz;
A) tez;
B) sekin.

19. Siz bo`lishi mumkin bo`lgan noxush hodisalardan tashvishlanasiz?
A) tez-tez;
B)ba'zan.

20. Qiyin holatlarda Siz:
A) yordam so`rashga shoshilasiz:
B) hech kimga murojaat qilmaysiz.

Endi javoblaringizni hisoblab chiqing.

Test kaliti:

Javoblar ichidagi quyidagilar Sizdagi ekstroversiyani ko`rsatadi: 1b, 2a, 3b, 5a, 6b, 7a, 8b, 9a, 10b, 11a, 12b, 13a, 14b, 15a, 16a, 17a, 18a, 19b, 20a. Mos kelgan javoblar sonini 5 ga ko`paytiring.

0-35 ballar-introversiya;
36-65 ballar-ambiversiya;
66-100 ballar-ekstroversiya.

Shunga o`xshash tavsiyani o`rganish uslublari ko`p bo`lib, ular yordamida odam o`zini va yaqinlarini o`rganib turishi kerak.

Qobiliyatlar haqida tushuncha. Faoliyat va qobiliyatlar, qobiliyatlarning tuzilishi, qobiliyatlarni aniqlash va o'lchash muammosi tushuntiriladi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar sifatida xarakterlanadi. Ya'ni har bir shaxsning boshqa bir shaxsdan farq qiladigan sifatlari ochib beriladi.

Talant va uning namoyon bo'lishi hamda shaklanishida mehnatning roli, qobiliyatlar va inson shaxsi, qobiliyatlarning rivojlanishi haqida tushuncha beriladi. Qobiliyatni rivojlantirish masalasini inson shaxsi taraqqiyotining umumiy muammolaridan ajratib bo'lmaydi. Muskullar singari qobiliyatlar ham momiq paytida rivojlanib boradi.







**Quyida prof.B.R.Qodirov . SHaxs qobiliyatini o`rganish. Iqtidorli talabalarni aniqlash metodikasi.**

Umumiy aqliy rivojlanganlikni, intellektual salohiyati bilan ajralib turgan yoshlarni aniqlashga qaratilgan ushbu sotsiometrik metodika oliy yoki o`rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari guruhida o`tkazishga mo`ljallangandir. Metodikaning yutuqli tomonlaridan biri shundaki, uni talabalarda o`tkazishdan oldin maxsus javob varaqalarini ko`paytirish talab etilmaydi va oddiy varaq qog`ozda anonim tarzda o`tkaziladi. Tadqiqotchi guruhdagi eng zukko, iqtidorli talabani aniqlash istagi borligini tushuntirib, ularni bu ishga xolis va jiddiy yondoshgan holda yordam berishlarini so`raydi. So`ngra talabalarga murojaat qilib, ulardan guruh a'zolari o`rtasida har tomonlama etuk, aqlli, o`tkir, zehnli, faol va ko`pchilikning hurmatini qozongan 10 nafar talabaning ism-familiyalarini bir ustun shaklida, 1 dan 10 gacha bo`lgan raqamlar bilan belgilagan holda yozib chiqishlarini so`raydi (1-jadvalga k). Talabalarga tushunarliroq bo`lishi uchun doskadan foydalanib tushuntirish mumkin.

Qog`ozning chap tomonida guruhdagi eng ilg`or talabalarning ism-familiyalarini barcha ishtirokchilar o`z bilganlaricha yozib bo`lishgach ro`yxatning o`ng tomonida 3 ta ustun- A, B, V ustunlarini chizishlari va ularni mos ravishda «Mehnatsevarlik», «Zukkolik», «Tashkilotchilik» deb nomlashlari kerak bo`ladi.

So`ngra taqiqotchining ko`rsatmasiga binoan ro`yxatdagi talabalar orasidan eng mehnatsevar, tirishqoq, intiluvchan, o`z ustida tinmay ishlaydigan, faol 3 nafar talabani tanlaydilar va A ustunida tegishli ism-familiyalarning qarshisiga «Q» belgisini qo`yadilar. Ya'ni, A ustuniga jami bo`lib 3 ta «Q» belgisi qo`yilishi kerak.

3-jadval

| **Guruhning eng ilg`or talabalari** | **A mehnatsevarlik** | **B Zukkolik** | **V tashkilotchilik** |
|---|---|---|---|
| 1. I.Y | + | | + |
| 2. R.F | | + | + |
| 3.P.O` | | | |
| 4. V.A | + | + | + |
| 5. U.P | | | |
| 6. N.E | + | | |
| 7.Sh.N | | | |
| 8. H.O | | | |
| 9.D.Y | | | |
| 10. E.Z | | + | |

So`ng B ustunida ham ro`yxatdagi 10 nafar talaba orasidan uch nafarini ajratish kerak bo`ladi. Bunda talabalardan ijodkor, har qanday sohadagi muammoni qiynalmasdan, engil hal eta oladigan, hozirjavob, o`tkir zehnli bo`lgan 3 talabani belgilashlari so`raladi. Shu o`rinda talabalarning diqqatiga havola etilishi zarur bo`lgan holat shundan iboratki, ular A ustunida belgilangan talabalarni keyingi ustunlarda ham takroran belgilashlari yoki istagan boshqa talabalarni tanlashlari mumkin. Biroq har bir ustunda tanlab belgilanayotgan 3 nafar talabaning fazilatlari shu ustunda so`ralayotgan mazmunga javob berishi kerak, xolos.

Uchinchi, V ustunida yana o`sha ro`yxatdagi talabalar orasidan tashkilotchi, o`z aql-farosati bilan boshqalarni o`ziga ergashtira oladigan, ularga o`z ta'sirini o`tkaza oladigan, tashkiliy faolligi bilan ajralib turadigan 3 kishining ism, familiyalari qarshisiga «Q» belgisi qo`yish so`raladi.

Shunday qilib, A, B, V ustunlarining har biriga 3 martadan jami 9 ta «Q» belgisi qo`yiladi va shu bilan guruh o`z vazifasini bajarib bo`lgan hisoblanadi. Shundan so`ng javob varaqalari tezda terib olinadi, guruh esa navbatdagi ishlari bilan mashg`ul bo`lishi mumkin.

**Olingan ma'lumotlarning talqini va ularni qayta ishlash**

Ma'lumotlarni olish jarayonini mazmunan tahlil etgan holda ta'kidlash mumkinki, «A» ustunidagi ma'lumotlar talabaning irodaviy xislatlarini, qiyinchiliklardan qo`rqmasligini, sabr-bardoshliligini aniqlashga qaratilgan. Har qanday iste'dodning zamirida yotuvchi bu muhim ko`rsatgichni m e h n a t s e v a r l i k o m i l i deb atashimiz mumkin.

«B» ustuni talabalarning aqliy imkoniyat saviyalarini aniqlashga qaratilgan. Shubhasiz, fikrlashda, fahm-farosatda, hozirjavoblikda sezilarli darajadagi afzalliklarga ega bo`lmagan kishida aqliy iste'dod to`g`risida so`z yuritish mumkin emas. Shu sababli, shartli ravishda B ustunini

z u k k o l i k o m i l i deb nomlash mumkin.

«V» ustuni esa talabalarning ijtimoiy etukligi, har qanday guruhga, jamiyatga bosh bo`lish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan. Albatta bunday sardorlar aql-zakovat va sabr matonatlari bilan jamiyatda o`zlarini ko`rsata olsalar, ulardan kelajakda tom ma'noda orzu qilingan barkamol insonlarni, liderlarni kutish mumkindir. Shu sababli, «ilg`orlik tushunchasini to`liq aks ettirish maqsadida t a sh k i l o t ch i l i k o m i l i kiritilgan bo`lib, V ustunida o`z ifodasini topgan.

Ko`rinib turganidek, har uchala ko`rsatkich ham aqliy qobiliyatlarning muhim hayotiy qirralarini o`zida mujassam etadi va ularning bir insonda jamlanishi juda katta salohiyat, aqliy va ijtimoiy etuklikdan darak berishini qayd etish mumkin.

Yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda olingan ma'lumotlarni qayta ishlashning quyidagi usulini tavsiya etamiz.

Dastlab, har bir talabaning javob varaqasidagi ma'lumotlarni alohida ishlanib, keyin olingan natijalarni umumlashtiruvchi jadvalga ko`chirib chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Javob varaqasida «+» belgilari soni satrlar bo`ylab gorizontal yo`nalishda sanab chiqiladi. Ravshanki, javob varaqasida keltirilgan 10 nafar talabaning qarshisidagi «+» belgilari soni 0 dan 3 gacha bo`lishi mumkin. Agar biror talaba uchala ustunda ham tanlangan bo`lsa, mumkin. Agar biror talaba uchala ustunda ham tanlangan bo`lsa, unga 3 ball qiymat beriladi. Agar talaba ism-familiyasining qarshisiga 2 ta «+» belgisi qo`yilgan bo`lsa, bu talabaga 2 ball beriladi va agar uchta ustundan faqat bittasida «+» belgisi mavjud bo`lsa bu talaba 1 ballga ega bo`ladi. A, B, V ustunlarining birortasida hambelgilanmagan talabalarga ball qo`yilmaydi va umumlashtiruvchi jadvalga ularning ism-familiyalari ko`chirilmaydi.Demak, har bir talaba topshirgan javob varaqalarida faqat 1,2 yoki 3 ballga ega bo`lgan familiyalargina maxsus zukkolarini tanlash metodikasidagidek matritsa (jadval) tuziladi, unga javob varaqalaridagi ball olgan bolalarning familiyalari tegishli ballari bilan navbatma-navbat ko`chirilaveradi. Agar biron bir talabaning familiyasi jadvalda avvval qayd qilingan bo`lsa, familiyasi yana qaytadan yozilmay, avval yozilgan familiyasi qarshisida uning javob varaqasidagi bali qo`yiladi. Shunday qilib, barcha javoblar matritsaga ko`chirilgan matritsada eng ko`p ovoz olgan eng kam ovoz olgan talabalarni bevosita ballarining ko`p-kamligidan bilsa bo`ladi. Bu erda ham N ko`rsatkichi-ovozlar soni, M esa ularning yig`indisi. Ushbu ma'lumotlardan foydalanib, tadqiqot natijalarini qayta ishlashning quyidagi usulini bajarish

**4- жадвал.**

| F.I | BALLAR | H | M | $K = \frac{M}{3 \cdot n} \cdot 100\%$ |
|---|---|---|---|---|
| 1. K. U | 3.2.3.2.1.3.3.1.3.3.2 | 11 | 26 | 57.78% |
| 2.I.X | 1,1,2,3,3,2,1,3,2 | 9 | 18 | 40.00% |
| 3.S.M | 1,2,2,1,1,1,2,3,1 | 9 | 14 | 31.11% |
| 4.K.Yu | 2,3,3,1,1,1 | 6 | 11 | 24.44% |
| 5.F.A | 1,1,3,2,1,1,1 | 7 | 10 | 22.22% |

Jami ishtirokchilar; 15 kishi ($m = 15$)

Tadqiqotda, masalan, 15 kishi ($n = 15$) ishtirok etayotgan bo`lsa, bir talabaga ko`pi bilan 15 kishi ovoz bergan bo`lishi mumkin. Ravshanki, agar 3 balldan bayolanganda u `yoki bu talabaning ballar yig`indisi *(M)* ko`pi bilan 45 ga teng bo`lishi mumkin ($3 \cdot 15 = 45$). Biroq real holda M 45dan ($3 \cdot n$dan) kichikdir. Yig`indi Mning foizi kamaygan sari tilga olingan talabaning «reytingi» tushib boradi Xullas, M miqdorining foizlardagi qiymati — K ko`rsatgichi juda muhim o`lchov birligi bo`lib, uni quyidagi matematik formula orqali tasavvur qilish va hisoblab topish mumkin:

$$K = \frac{M}{3 \cdot n} \cdot 100\%$$

Bu erda M-talabaga barcha ballar(«+»lar soni) ning jamlanmasi, n-tadqiqot o`tkazilayotgan paytda unda ishtirok etayotgan guruh a'zolarining jami soni. Olinadigan natijalarning ishonchliligini ta'minlash ma'nosida n ning 3 ga ko`paytmasi esa har bir talaba olishi mumkin bo`lgan maksimal ovozlar sonini aks ettiradi.

K ko`rsatgichi kamida 50 foizga teng bo`lgan talabalar alohida diqqatga sazovordirlar. Bunday talabalarning o`qish faoliyatlari rag`batlantirilsa, qo`shimcha imkoniyatlar, qulayliklar keltiraigan insonlar etishishini kutish mumkin.

**Bilimlarni tekshirish uchun test savollari:**

1. Quyidagi oliy nerv faoliyati tipining qaysi temperamentga to`g`ri kelishini ko`rsating. Kuchli, muvozanatsiz, harakatchan tip
A). sangvinik
V). xolerik
S). flegmatik
D). melanxolik

2. Quyidagi oliy nerv faoliyati tipining qaysi temperamentga to`g`ri kelishini ko`rsating. Kuchli, muvozanatli, tormozlanish qo`zg`alishdan ustun
A). sangvinik
V). xolerik
S). flegmatik
D). melanxolik

3. Temperament turlarining eng sokini aniqlang
A). sangvinik
V). xolerik
S). flegmatik
D). melanxolik

4. Oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi ta'limot kim tomonidan yaratilgan
A). I.P.Pavlov
V). B.M.Teplov
S). I.M.Sechenov
D). E.Krechmer

5. Gippokrat tomonidan ajratilgan temperament tiplari
A). ekstrovert, introvet
V). xolerik, sangvinik, melanxolik, flegmatik
S). vitseratonik, serebratonik
D). A va V javoblar to`g`ri

6. Xarakter psixik xodisalarning qaysi guruhiga (turkumga) kiradi?
A.Psixik jarayonlarga B. Psixik holatlarga,
V. Psixik xususiyatlarga, G. Parapsixolog xodisalarga

7. Individual farqlarni o`rganuvchi sohasi
A). bolalar psixologiyasi
V). yosh davrlar psixologiyasi
S). eksperimental psixologiya
D). Differentsial psixologiya

8. Kishining ma'lum ijtimoiy munosabatlar asosila shakllanuvchi nisbatan o`zgarmas xususiyat bu-………..
A). temperament
V). qobiliyat
S). iste'dod
D). xarakter
9 Barcha psixik hodisalar to`rt guruhga bo`linadi. Quyida tushurib qoldirilganligini toping: psixik holatlar, psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar, ….
A Parapsixologik xodisalar, B. Sezgilar,
V. Qobiliyatlarga, G. Parapsixologik xodisalarga

10. Individual hayot shakllanib kishining o`ziga, boshqalarga, mehnatga bo`lgan munosabatida yuzaga chiqadigan individual- psixologik xususiyat …………. deyiladi.
A*. Xarakter B. Iroda V. Temperament G Qobiliyat

11. Aniq maqsadga qaratilgan amaliy faoliyatning asosini …….. tashkil etadi
A). hissiyot
V). iroda
S). qobiliyat
D). Diqqat

12. Biror nazariy yoki amaliy ishni muvaffakiyatli bajarish shartlaridan biri bo`lib, kishining tajribasiga, bilimiga, tug`ma imkoniyatlariga bog`lik ravishda shakllanadigan xususiyat?
A). Ko`nikma,
V). Intellekt,
S). Qobiliyat,
D). Talant.

13. Malaka va ko`nikmalarning rivojlanishiga, ta'lim olishga moyillik tug`diradigan bilimlarni egallashga yordam beradigan ijobiy hissiy holat?
A. qiziqish B. quvonish hissi V. iroda G. tafakkur
14. Individual farqlarni o`rganuvchi psixologiya sohasi?
A. differentsial psixologik S. yosh davrlar psixologiyasi
V. umumiy psixologiya D. bolalar psixologiyasi

**Joriy nazoratni baholash mezoni:**

| № | Foizda % | Ballda | Baho | Talabaning bilim darajasi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 55 | 2,75 | 2 | Qoniqarsiz |
| 2 | 56-70 | 2,8-3,5 | 3 | Qoniqarli |
| 3 | 71-85 | 3,5-4,2 | 4 | Yaxshi |
| 4 | 86-100 | 4,3-5 | 5 | A’lo |

## Amaliy mashg'ulotning ta'lim texnologiyasi

